2020-yil 25-yanvardan chiqa boshlagan

Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 103 (1164), 2024-yil 28-may, seshanba

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz

O‘ZBEKISTON VA ROSSIYA: TASHRIF DAVOMIDA ERISHILGAN NATIJALAR DAVLATLARARO HAMKORLIK TARIXIDA YANGI BOSQICHNI BOSHLAB BERADI

Ko‘ksaroy qarorgohida 27-may kuni Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putinni tantanali kutib olish marosimi bo‘lib o‘tdi.

Mamlakat taraqqiyotini belgilovchi omillar ko‘p. Ulardan biri uzoq-yaqin davlatlar bilan strategik aloqalarni mustahkamlashdir. Zero, bugun jahonda bir qoida qat’iy ishlaydi — hech bir mamlakat yakka o‘zi rivojlana olmaydi.

Yangi O‘zbekiston jahon hamjamiyati bilan faol hamkorlik qilib kelmoqda. Bir-birini qo‘llab-quvvatlash asosiga qurilayotgan bu munosabatlar muhim ahamiyatga ega.

Keyingi yillarda mamlakatimizning ikki tomonlama munosabatlarda katta yutuqlarga erishayotgan hamkor davlatlari orasida Rossiya ham bor. Bu fikrni tasdiqlovchi raqamlarni ko‘plab misollarda keltirish mumkin. Xususan, davlatlarimiz o‘rtasidagi o‘zaro tovar ayirboshlash hajmi keyingi yillarda qariyb ikki yarim baravarga oshdi. Rossiya yurtimiz uchun eng katta eksport bozori bo‘lib qolmoqda.

Shu o‘rinda yana bir misol, Rossiya mamlakatimizda tashkil etilgan xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar soni bo‘yicha ham yetakchilar qatorida.

Mamlakatimizga Rossiya Federatsiyasi Prezidentining davlat tashrifi ko‘p qirrali hamkorlikning izchil va samarali davom etishida muhim ahamiyatga ega.

Qarorgoh oldidagi maydonda ikki mamlakat davlat bayroqlari ko‘tarildi va faxriy qorovul saf tortdi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev oliy martabali mehmonni samimiy qarshi olib, shohsupaga taklif qildi. Davlat madhiyalari yangradi. Harbiy orkestr sadolari ostida yetakchilar faxriy qorovul safi oldidan o‘tib, rasmiy delegatsiyalar a’zolarini qutladilar.

Rasmiy kutib olish marosimidan so‘ng O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putinning tor doiradagi uchrashuvi bo‘lib o‘tdi.

Suhbat avvalida davlatimiz rahbari oliy martabali mehmonni samimiy qutlar ekan, Rossiya Prezidenti qayta saylanganidan so‘ng ilk xorijiy tashriflaridan birini aynan O‘zbekistonga amalga oshirayotganini alohida ta’kidladi.

Uchrashuvda O‘zbekiston — Rossiya keng qamrovli strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlarini yanada rivojlantirish va chuqurlashtirish masalalari ko‘rib chiqildi.

Tashrifga tayyorgarlik doirasida parlament a’zolarining uchrashuvlari, siyosiy maslahatlashuvlar, “Innoprom” ko‘rgazmasi, ikki mamlakat yetakchi muhandislik-texnik oliy o‘quv yurtlari rektorlari va nufuzli tibbiyot muassasalari rahbarlarining anjumanlari samarali o‘tgani, Toshkentda Rus san’ati haftaligi tadbirlari davom etayotgani ta’kidlandi.

Savdo-iqtisodiy hamkorlikning o‘sib borayotgan sur’ati mamnuniyat bilan qayd etildi. O‘zaro tovar ayirboshlash va Rossiyadan investitsiyalar hajmi ko‘paymoqda, sanoat kooperatsiyasi rivojlanmoqda.

Yetakchi korxonalarning qo‘shma loyihalarini qo‘llab-quvvatlash maqsadida Qo‘shma investitsiya platformasini ishga tushirish yuzasidan kelishuvga erishildi.

Prezidentlar hududlararo hamkorlikni yanada rivojlantirish muhimligini ta’kidladilar.

Shuningdek, yetakchilar energetika, shu jumladan, atom energetikasi, qishloq xo‘jaligi, innovatsiyalar, migratsiya, xavfsizlik va boshqa sohalarda o‘zaro manfaatli hamkorlikni rivojlantirish masalalarini atroflicha muhokama qildilar.

Ko‘p qirrali madaniy-gumanitar almashinuv rivojlanayotganiga yuqori baho berildi.

Ta’lim va muhandis kadrlarni tayyorlash sohalaridagi hamkorlikka alohida e’tibor qaratildi.

Davlat rahbarlari tomonlarni qiziqtirgan mintaqaviy va xalqaro ahamiyatga molik masalalar yuzasidan ham fikr almashdilar.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putin muzokaralarni rasmiy delegatsiyalar ishtirokida kengaytirilgan tarkibda davom ettirdilar.

Muzokaralarda O‘zbekiston bilan Rossiya o‘rtasidagi keng qamrovli strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlarini, eng avvalo, siyosiy, savdo-iqtisodiy va madaniy-gumanitar sohalarda yanada rivojlantirish va chuqurlashtirish masalalari batafsil muhokama qilindi.

Ikki tomonlama munosabatlarning hozirgi yuksak darajasi va o‘ziga xosligi, davlatlararo hamkorlikning barcha soha va yo‘nalishlarini qamrab olganligi mamnuniyat bilan ta’kidlandi.

— Sizning davlat tashrifingizni haqli ravishda tarixiy deb atash mumkin. Bu tashrif mamlakatlarimiz o‘rtasidagi keng qamrovli strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlarida yangi bosqichni boshlab bermoqda, — dedi Shavkat Mirziyoyev.

Muzokaralar davomida tomonlar parlamentlar, hukumatlar, vazirliklar, idoralar, hududlar, jamoatchilik, ekspertlar va ishbilarmon doiralar darajasidagi faol aloqalarni davom ettirishga kelishib oldilar.

Bu maqsadda Bosh vazirlar darajasidagi Qo‘shma komissiya va Hukumatlararo komissiyaning imkoniyatlaridan to‘liq foydalaniladi, ularning navbatdagi yig‘ilishlari shu yil oxirigacha o‘tkaziladi.

Shuningdek, muntazam siyosiy maslahatlashuvlarni, BMT, MDH, SHHT kabi xalqaro va mintaqaviy tuzilmalar hamda boshqa ko‘p tomonlama platformalar doirasida yaqin hamkorlikni davom ettirish zarurligi ta’kidlandi.

O‘zaro savdo aylanmasining barqaror sur’ati mamnuniyat bilan qayd etildi. So‘nggi 7 yilda u 2,5 barobar oshdi. Tomonlar yangi maqsadli ko‘rsatkichga — yaqin istiqbolda savdo hajmini 30 milliard dollarga yetkazishga kelishib oldilar.

Ushbu vazifani amalga oshirishga ko‘maklashish uchun Rossiyada O‘zbekistonning to‘laqonli savdo vakolatxonasi tashkil etiladi.

Bugungi sammitga energetika, metallurgiya, neft-kimyo, mashinasozlik, tog‘-kon sanoati, qishloq xo‘jaligi, logistika, farmatsevtika, sun’iy intellekt va boshqa ko‘plab yo‘nalishlarda 20 milliard dollardan ortiq qiymatda yangi sanoat kooperatsiyasi loyihalari tayyorlandi.

Bu kabi loyihalarni ilgari surish uchun qo‘shma Investitsiya platformasi ishga tushiriladi.

Energetika sohasida gaz tashish tizimini modernizatsiya qilish, gaz, neft va neft mahsulotlari yetkazib berish hajmini oshirish, uglevodorodlarni qayta ishlash loyihalarini amalga oshirish bo‘yicha kelishuvga erishildi.

Hududlar o‘rtasidagi hamkorlik ham jadal rivojlanib borayotgani alohida ta’kidlandi. O‘tgan hafta O‘zbekistonning barcha hududlari rahbarlari tashrif bilan Rossiyada bo‘ldilar.

Oziq-ovqat xavfsizligi, innovatsiyalar, raqamli texnologiyalar, sun’iy intellekt, migratsiya kabi qator muhim yo‘nalishlar ham ko‘rib chiqildi.

Madaniyat va san’at, fan, sog‘liqni saqlash, turizm, yoshlar va sport sohalarida faol almashinuvlar davom ettiriladi.

Tomonlar O‘zbekistonda Bauman nomidagi Moskva texnika universiteti va Butunrossiya tashqi savdo akademiyasi filiallarini ochish bo‘yicha kelishuvlarga erishilganini olqishladilar.

Uchrashuv chog‘ida delegatsiya a’zolarining qisqa hisobotlari, turli sohalarda amaliy hamkorlik bo‘yicha aniq takliflari tinglandi.

Muzokaralar yakunida davlat rahbarlari har bir yo‘nalish bo‘yicha amalga oshirish mexanizmlari nazarda tutilgan “yo‘l xaritalari”ni qabul qilishga topshiriq berdilar.

O‘tkazilgan muzokaralar yakunlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putin Qo‘shma bayonot imzoladilar.

Davlat rahbarlari huzurida muhim ikki tomonlama bitimlarni almashish marosimi bo‘lib o‘tdi. Jumladan, bular:

— O‘zbekiston Respublikasi va Rossiya Federatsiyasi hamkorligining ustuvor yo‘nalishlarida hamkorlikni kengaytirish bo‘yicha qo‘shma harakatlar rejasi;

— O‘zbekiston Respublikasiga metrologiya sohasida texnik ko‘mak ko‘rsatish to‘g‘risida hukumatlararo bitim;

— Birgalikda kino ishlab chiqarish sohasidagi hamkorlik to‘g‘risida hukumatlararo bitim;

— Aholining sanitariya-epidemiologik farovonligini ta’minlash sohasidagi hamkorlik to‘g‘risida hukumatlararo bitim;

— O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi hamda Rossiya Federatsiyasi Fan va oliy ta’lim vazirligi o‘rtasida ilmiy texnologiyalar sohasida qo‘shma tanlovlar o‘tkazish to‘g‘risida bitim;

— Baliqchilik sohasidagi hamkorlik to‘g‘risidagi hukumatlararo bitimga o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida bayonnoma;

— 2024-2026-yillarga mo‘ljallangan madaniyat sohasida hamkorlik dasturi;

— 2025-2026-yillarga mo‘ljallangan turistlar oqimini oshirish bo‘yicha hamkorlik dasturi;

— O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi hamda Rossiya Federatsiyasi Sanoat va savdo vazirligi o‘rtasida tovar ayirboshlashni ko‘paytirish maqsadida sanoat kooperatsiyasini kengaytirish bo‘yicha qo‘shma harakatlar rejasi;

— O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi hamda Rossiya Federatsiyasi Sanoat va savdo vazirligi o‘rtasida 2024-2030-yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasi va Rossiya Federatsiyasi o‘rtasida o‘zaro savdo hajmini oshirish bo‘yicha ishchi guruh faoliyatining asosiy yo‘nalishlari rejasi;

— O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi huzuridagi Karantin va o‘simliklarni himoya qilish agentligi hamda Rossiya Federatsiyasi Qishloq xo‘jaligi vazirligining Veterinariya va fitosanitariya nazorati bo‘yicha federal xizmati o‘rtasida fitosanitariya sohasida raqamli hamkorlik to‘g‘risida bitim;

— O‘zbekiston Respublikasi va Rossiya Federatsiyasi o‘rtasida 2024-2025-yillarga mo‘ljallangan karantin va o‘simliklarni himoya qilish sohasidagi hamkorlikni rivojlantirish bo‘yicha amaliy chora-tadbirlar rejasi;

— O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi hamda Rossiya Federatsiyasi Fan va oliy ta’lim vazirligi o‘rtasida “N.E.Bauman nomidagi Moskva davlat texnika universiteti” federal davlat byudjet oliy ta’lim muassasasi filialini tashkil etish to‘g‘risida memorandum;

— O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi hamda Rossiya Federatsiyasi Sog‘liqni saqlash vazirligi o‘rtasida sog‘liqni saqlashni tashkil etish masalalari bo‘yicha; tibbiyot maqsadidagi dori vositalarini, tibbiy buyumlarni va yuqori texnologik davolash usullarini tartibga solish sohasidagi hamkorlik to‘g‘risida bayonnomalar;

— O‘zbekiston Respublikasi hududida kam quvvatli atom elektr stansiyasini qurish bo‘yicha hamkorlik to‘g‘risidagi kelishuvlar;

— Toshkentda Butunrossiya tashqi savdo akademiyasining filialini ochish to‘g‘risida bitim;

— transport mashinasozligi, fuqarolik aviatsiyasi tizimlari sanoatini rivojlantirish, turizm almashinuvini oshirish, Toshkentda gumanitar loyihalarni amalga oshirish, agrologistika markazlari va zamonaviy kimyo quvvatlarini tashkil etish bo‘yicha hamkorlik to‘g‘risida hujjatlar.

Oliy darajadagi muzokaralar yakunlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putin ommaviy axborot vositalari vakillari uchun bayonot berdilar.

Brifingda so‘zga chiqqan davlatimiz rahbari Vladimir Putinning Rossiya Federatsiyasi Prezidenti lavozimiga qayta saylanganidan keyingi ilk xorijiy tashriflaridan biri bo‘lgan ushbu tashrifini O‘zbekistonga va ko‘pmillatli xalqimizga bo‘lgan alohida munosabat va hurmatning, shuningdek, ikki tomonlama hamkorlikning bugungi yuqori darajasi va O‘zbekiston — Rossiya munosabatlarini chuqurlashtirishga bo‘lgan qat’iy intilishning tasdig‘i sifatida qabul qilayotganini ta’kidladi.

O‘zbekiston Prezidenti mazkur sammitga katta tayyorgarlik ko‘rilganini alohida ta’kidladi. Parlament vakillarining uchrashuvlari, siyosiy maslahatlashuvlar, ikki davlat hukumat delegatsiyalari o‘rtasidagi o‘zaro tashriflar samarali o‘tdi.

Har doimgidek an’anaviy ochiq, konstruktiv va do‘stona muhitda o‘tgan bugungi muzokaralarning natijalari katta mamnuniyat bilan qayd etildi.

Yetakchilar ikki tomonlama kun tartibining barcha dolzarb masalalarini atroflicha muhokama qilib, delegatsiya a’zolarining asosiy yo‘nalishlar bo‘yicha hisobotlarini tingladilar, xalqaro va mintaqaviy masalalar yuzasidan fikr almashdilar.

Savdo-iqtisodiy sohada amaliy hamkorlikni kuchaytirishga alohida e’tibor qaratildi. Tomonlar tovar ayirboshlash hajmini yanada oshirish zarurligi borasida yakdil fikrga keldilar.

Davlatlar sanoat kooperatsiyasida jiddiy ilgarilagan. Muzokaralar davomida energetika, neft-kimyo, metallurgiya, mashinasozlik, qishloq xo‘jaligi, logistika va innovatsion tarmoqlar bo‘yicha aniq loyihalar ko‘rib chiqildi.

Bugungi kunda O‘zbekistonda 3 mingdan ortiq qo‘shma korxona muvaffaqiyatli faoliyat ko‘rsatmoqda. Bundan tashqari, loyihalar portfeli qariyb 45 milliard dollarni tashkil qiladi. Bu galgi tashrif doirasida 20 milliard dollarlik yangi loyihalar bo‘yicha kelishuvlar imzolangani alohida ta’kidlandi.

Hududlararo hamkorlik O‘zbekiston bilan Rossiya o‘rtasidagi iqtisodiy va gumanitar hamkorligining haqiqiy harakatlantiruvchi kuchi bo‘lib borayotgani alohida qayd etildi. Hududlar forumini Prezidentlar raisligidagi Hududlar kengashiga aylantirish bo‘yicha kelishuvga erishildi.

Davlat rahbarlari energetika sohasidagi strategik hamkorlikni kuchaytirish masalasiga alohida to‘xtalib o‘tdilar.

O‘tgan yili Rossiya tabiiy gazini O‘zbekistonga yetkazib berish boshlangan edi. Muzokaralar davomida gaz, neft va neft mahsulotlarini yetkazib berish hajmini oshirish, infratuzilmani modernizatsiya qilish va mahalliy korxonalar negizida uglevodorodlarni chuqur qayta ishlash loyihalarini amalga oshirish masalalari muhokama qilindi.

Mamlakatimizda kam quvvatli atom elektr stansiyasi qurilishi bo‘yicha loyihani amalga oshirish to‘g‘risida bitim imzolandi.

— Dunyodagi deyarli barcha yetakchi davlatlar o‘z energetik xavfsizligi va barqaror rivojlanishini atom energetikasi hisobiga ta’minlamoqda. Agar biz O‘zbekistonning yangi taraqqiyot bosqichiga chiqish istiqbollari haqida o‘ylasak, katta miqdordagi uran zaxiralariga ega va uni uchinchi davlatlarga eksport qilayotgan mamlakatimiz uchun bu loyiha hayotiy ahamiyatga ega, — dedi Prezident Shavkat Mirziyoyev.

Davomi 2-betda

XALQARO EKSPERTLAR FIKRI

IKKI TOMONLAMA SHERIKLIK VA DO‘STLIK MUNOSABATLARI JADAL RIVOJLANMOQDA

Joriy yilning 26-27-may kunlari bo‘lib o‘tgan oliy darajadagi O‘zbekiston — Rossiya muzokaralarining samarali natijalari ikki davlatning ko‘p qirrali hamkorlikni yanada kengaytirishga intilishini tasdiqladi va davlatlararo munosabatlarda yangi sahifa ochdi.

Xalqaro ekspertlar ta’kidlashicha, mazkur tashrif ikki tomonlama munosabatlarning bugungi kundagi yuksak darajasi, o‘ziga xos xususiyati va davlatlararo hamkorlikning barcha soha hamda yo‘nalishlarini qamrab olgani bilan ahamiyatli bo‘ldi.

Davomi 2-betda

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining

F A R M O N I

OLIY VA PROFESSIONAL TA’LIM TASHKILOTLARI TALABALARI VA O‘QUVCHILARIGA BUDJET MABLAG‘LARI HISOBIDAN TA’LIM KREDITINI AJRATISH TARTIBINI TAKOMILLASHTIRISH TO‘G‘RISIDA

Oliy va professional ta’lim tashkilotlarida to‘lov-kontrakt asosida o‘qiyotgan talaba va o‘quvchilarni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash uchun ajratilayotgan Davlat byudjeti mablag‘laridan samarali foydalanish maqsadida:

1. Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024/2025-o‘quv yilidan boshlab Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Ta’lim kreditini moliyalashtirish jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan oliy va professional ta’lim tashkilotlarining talaba va o‘quvchilariga ta’lim kreditlari (keyingi o‘rinlarda — ta’lim krediti) ajratishning quyidagilarni nazarda tutuvchi tartibini joriy qilish to‘g‘risidagi takliflariga rozilik berilsin:

a) oliy va professional ta’lim tashkilotlarida tahsil olish uchun ta’lim kreditini faqat kunduzgi ta’lim shaklida o‘qiyotgan talaba va o‘quvchilarga ajratish;

b) ta’lim kreditini:

oliy ta’lim tashkilotlarining birinchi bosqich talabalari hamda professional ta’lim tashkilotlari o‘quvchilari uchun to‘lov-kontrakt summasi miqdorida;

oliy ta’lim tashkilotlarining ikkinchi va undan yuqori kurs talabalari uchun fanlarni o‘zlashtirishning o‘rtacha ko‘rsatkichi “3” dan past bo‘lgan taqdirda to‘lov-kontrakt summasining ko‘pi bilan 80 foizi miqdorida ajratish (“Ijtimoiy himoya yagona reyestri”ga kiritilgan oilalar farzandlari bundan mustasno).

Davomi 2-betda

Ikki davlat o‘rtasidagi hamkorlik ko‘plab sohalarda, jumladan, energetika, aerokosmik, kimyo muhandisligi, ta’lim, transport, qishloq xo‘jaligi va boshqa yo‘nalishlarda ham izchil rivojlanmoqda.

YANGI O‘ZBEKISTON

2024-yil 28-may, 103-son

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz

O‘ZBEKISTON VA ROSSIYA: TASHRIF DAVOMIDA ERISHILGAN NATIJALAR DAVLATLARARO HAMKORLIK TARIXIDA YANGI BOSQICHNI BOSHLAB BERADI

Boshlanishi 1-betda

Joriy yilda O‘zbekistonda Rossiyaning yirik madaniy tadbirlari, jumladan, kino kunlari o‘tkaziladi. Rossiyada O‘zbekiston madaniyati kunlari, ko‘rgazmalar va teatrlarimizning ijodiy safarlari bo‘lib o‘tadi.

Prezidentlar ta’lim va sog‘liqni saqlash sohalaridagi hamkorlikni rivojlantirish ahamiyatini qayd etdilar. Ikki mamlakat yetakchi universitetlari va tibbiyot muassasalari o‘rtasida doimiy muloqot va samarali sheriklikni qo‘llab-quvvatladilar.

Muhandislik kadrlarini tayyorlash bo‘yicha qo‘shma ishlar boshlandi. Bu maqsadda tashkil etilayotgan Toshkentdagi Nikolay Bauman nomidagi Moskva davlat texnika universiteti filiali mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan yetakchi Rossiya universitetlarining o‘n beshinchisi bo‘ladi.

Migratsiya sohasidagi hamkorlik masalalari muzokaralarning alohida mavzusi bo‘ldi. Bu sohada o‘zaro hamkorlikning samarali mexanizmlari bo‘yicha kelishuvga erishildi.

Tashqi siyosiy idoralar o‘rtasida muntazam maslahatlashuvlarni davom ettirish, mintaqaviy va xalqaro tuzilmalar — Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi, Shanxay hamkorlik tashkiloti doirasida muloqotni chuqurlashtirish muhimligi tasdiqlandi.

An’anaviy va yangi tahdid va xatarlarga, birinchi navbatda, terrorizm, ekstremizm, uyushgan jinoyatchilik va narkotrafikka qarshi kurashish bo‘yicha vakolatli organlar va maxsus xizmatlar o‘rtasida yaqin hamkorlik masalalari O‘zbekiston va Rossiyaning diqqat markazida qoladi.

So‘zining yakunida davlatimiz rahbari muzokaralar natijalaridan mamnunligini bildirib, rossiyalik hamkasbiga o‘zi bilan O‘zbekistonga Rossiyaning asosiy vazirlik va idoralari, subyektlari rahbarlaridan iborat nufuzli delegatsiyani olib kelgani uchun minnatdorlik bildirdi.

Rossiya Prezidentining O‘zbekistonga davlat tashrifi davomidagi sermazmun uchrashuvlar va samarali natijalar ikki tomonlama do‘stlik, keng qamrovli strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlarini yanada mustahkamlashga xizmat qilishi, davlatlararo hamkorlik tarixida yangi bob ochishiga ishonch bildirildi.

Ko‘ksaroy qarorgohidagi ikki tomonlama tadbirlar yakunida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putin Faxriy mehmonlar xiyoboniga tashrif buyurdilar.

Bu yerda davlat rahbarlari O‘zbekiston va Rossiya xalqlarining do‘stligi, keng qamrovli strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlari mustahkamlanib borayotganining ramzi sifatida birgalikda daraxt ekdilar.

Xiyobonda boshqa hamkor davlatlar yetakchilari tomonidan ekilgan daraxtlar ham o‘smoqda.

O‘zbekiston — Rossiya sammiti doirasida Prezidentlar Shavkat Mirziyoyev va Vladimir Putin Toshkent shahridagi “G‘alaba bog‘i” yodgorlik majmuasiga tashrif buyurdilar.

Ko‘pmillatli xalqlarimiz ko‘p asrlik umumiy tariximiz va uning yorqin sahifalari, jumladan, Ikkinchi jahon urushidagi G‘alabani alohida hurmat-e’tibor bilan yod etadilar.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev rahbarligida “Inson qadri uchun” tamoyili islohotlar dasturining mutlaq ustuvor yo‘nalishiga aylandi. Xususan, o‘zbekistonliklarning urush janggohlarida ko‘rsatgan qahramonligi va front ortidagi fidokorona mehnatini abadiylashtirish uchun davlatimiz rahbari tashabbusi bilan 2020-yil 9-mayda “G‘alaba bog‘i” ochildi.

Keng majmua bir nechta hududga bo‘lingan bo‘lib, har biri alohida mavzuga bag‘ishlangan — urush dahshatlari va askarlar qahramonligi, front ortidagi ishchilar matonati va fidoyiligi, qayg‘u va dard, shodlik va shukronalik.

Bu yerga tashrif davomida O‘zbekiston va Rossiya Prezidentlari halok bo‘lgan askarlarning xotirasini yodga oldilar va urush dastidan besh nafar o‘g‘lidan ayrilgan Zulfiya aya Zokirova xotirasiga o‘rnatilgan “Matonat madhiyasi” yodgorligi poyiga gulchambar qo‘ydilar.

Majmuaning eng yuqori nuqtasi — sun’iy tepalik cho‘qqisida “Abadiy jasorat” kompozitsiyasi — Sovet Ittifoqi Qahramoni general-mayor Sobir Rahimov va Ikkinchi jahon urushida qatnashgan barcha o‘zbekistonlik askarlar xotirasiga bag‘ishlangan yodgorlik o‘rnatilgan.

Tepalik ichida bog‘ning asosiy pavilyoni — O‘zbekistonning urushdagi ishtiroki tarixiga bag‘ishlangan Shon-sharaf muzeyi joylashgan.

Yetakchilar muzeyning boy ekspozitsiyasi bilan tanishib, shonli o‘tmishimiz haqidagi xotirani asrab-avaylash muhimligini ta’kidladilar. Tarixiy merosni e’zozlash yoshlarda vatanparvarlik ruhini tarbiyalash va xalqlar o‘rtasida madaniy aloqalarni mustahkamlashda muhim o‘rin tutishi alohida qayd etildi.

G‘alaba bog‘ining mahobati va salobati Rossiya delegatsiyasi a’zolarida katta taassurot qoldirdi.

Shu kuni Toshkent shahrida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putin raisligida O‘zbekiston va Rossiya hududlari kengashining birinchi majlisi bo‘lib o‘tdi.

Ta’kidlash joizki, bu platforma olti yil avval ikki davlat rahbarlari tomonidan ishga tushirilgan bo‘lib, qo‘shma Hududlararo hamkorlik forumi shaklida faoliyat yuritgan.

Hududlararo hamkorlikning jadal sur’ati, o‘zaro investitsiyalarning yuqori dinamikasi, qo‘shma loyihalar soni, shuningdek, hamkorlik sohalarini kengaytirish uchun katta salohiyatni hisobga olib, forum maqomini oshirish va uni Prezidentlar raisligidagi O‘zbekiston va Rossiya hududlari kengashiga aylantirishga qaror qilindi.

Kengash majlisini ochar ekan, davlatimiz rahbari Prezident Vladimir Putin va Rossiya delegatsiyasi vakillarini, jumladan, 30 ga yaqin hudud rahbarlari va 300 nafar yetakchi sanoat korxonalari, biznes vakillarini samimiy qutladi.

— Bunday hamkorlik yuqori samaradorlik bilan ajralib turadi, O‘zbekiston va Rossiya o‘rtasidagi uzoq muddatli sheriklikni kengaytirishga xizmat qiladi, — deb ta’kidladi Prezidentimiz.

Oliy darajadagi muzokaralar samarali natijalar bilan yakunlangani, ikki davlat va xalqlar manfaatlari yo‘lida keng qamrovli sheriklikni kengaytirish va mustahkamlashga bo‘lgan umumiy intilishni ko‘rsatgani mamnuniyat bilan qayd etildi.

Yil boshidan beri barcha darajadagi, jumladan, ikki davlat hududlari o‘rtasidagi aloqalarning faollashgani alohida ta’kidlandi.

Shu ma’noda, hududlararo muloqotni yanada rivojlantirish va uni yangi amaliy mazmun bilan boyitishga alohida ahamiyat berilmoqda.

Bugungi kunda hududlar darajasida 4 milliard dollarlik 200 dan ortiq qo‘shma loyiha amalga oshirilmoqda. Kengash majlisi doirasida 5 milliard dollarlik yangi shartnomalar to‘plami tayyorlangan.

Oliy darajadagi muzokaralar davomida tovar ayirboshlash hajmini yaqin yillarda 30 milliard dollarga yetkazish va kelasi yili 10 milliard dollar investitsiya o‘zlashtirish bo‘yicha yangi maqsadlar belgilab olingani mamnuniyat bilan qayd etildi.

Maqsadlarga erishishning asosiy harakatlantiruvchi kuchi aynan ikki davlat hududlari bo‘lishi lozimligini ta’kidlagan davlatimiz rahbari hamkorlikning qator ustuvor yo‘nalishlarini belgilab berdi.

Avvalo, o‘zaro savdoni ko‘paytirish. So‘nggi 7 yil ichida O‘zbekistonning Rossiya bilan tovar ayirboshlash hajmi 2,5 barobarga o‘sdi. O‘zaro yetkazib berish tarkibi, eng avvalo, yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar hisobiga sifat jihatidan yaxshilandi.

Asosiy hamkorlar qatorida Moskva va Sankt-Peterburg shaharlari, Moskva, Leningrad, Novosibirsk, Astraxan, Ivanovo, Chelyabinsk viloyatlari, Krasnoyarsk, Perm o‘lkalari, Tatariston, Boshqirdiston va boshqalar bor.

Kooperatsiya va import o‘rnini bosish loyihalarini oshirish hisobiga tovar ayirboshlash hajmini ko‘paytirish bo‘yicha chora-tadbirlar rejalari qabul qilindi, bu jarayonga hududlar faol jalb qilinadi.

Savdo va kooperatsiya loyihalarini qo‘llab-quvvatlash uchun Rossiyada O‘zbekistonning to‘laqonli savdo vakolatxonasi ochiladi.

Investitsiya va texnologiyalar sohasidagi hamkorlik sur’ati yuqori baholandi. O‘zbekistonda uch mingdan ortiq Rossiya kompaniyalari muvaffaqiyatli faoliyat yuritmoqda.

Energetika, kimyo va neft-kimyo, mashinasozlik, qishloq xo‘jaligi, logistika, to‘qimachilik, oziq-ovqat sanoati va boshqa tarmoqlarda loyihalar amalga oshirilmoqda. Toshkent viloyatida tataristonlik hamkorlar bilan birga ishga tushirilgan “Ximgrad” sanoat zonasi kengaytirilmoqda, Jizzax viloyatida uning filiali barpo qilinmoqda.

Rossiya hududlarining yetakchi korxonalari bilan kooperatsiya loyihalarini ilgari surish uchun yangi qo‘shma sanoat zonalarini tashkil etish rejalari qo‘llab-quvvatlandi.

Qishloq xo‘jaligi sohasida hamkorlikni kengaytirish ustuvor yo‘nalish sifatida ko‘rsatib o‘tildi. O‘zbekiston hududlarida agrologistika markazlari tarmog‘ini kengaytirish ishlarini davom ettirish muhimligi ta’kidlandi.

Hududlarga Rossiyada ulgurji-taqsimlash markazlarini rivojlantirish va qishloq xo‘jaligi ekinlarini birgalikda yetishtirib, keyinchalik yurtimizga yetkazib berish bo‘yicha topshiriqlar berildi.

Madaniy hamkorlik bo‘yicha uch yillik dastur qabul qilindi.

O‘zbekiston Prezidenti turizm almashinuvini kengaytirish muhimligini ta’kidladi. So‘nggi bir necha yilda rossiyalik turistlar soni 5 barobarga oshdi. O‘zbekiston va Rossiyaning barcha yirik shaharlari muntazam aviaqatnovlar bilan bog‘langan.

Davlatimiz rahbari O‘zbekiston va Rossiyaning tarixiy shaharlariga turistik yo‘nalishlar va sayohatlarni rivojlantirish bo‘yicha yangi qo‘shma dasturlarni qabul qilishni taklif etdi.

O‘z navbatida, Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putin mamlakatimiz bilan ko‘p qirrali munosabatlarning rivojlanishidagi ijobiy tendensiyalarni yuqori baholab, Rossiya va O‘zbekiston hududlari o‘rtasidagi mavjud ishbilarmonlik aloqalarini mustahkamlashning muhim ahamiyatini ta’kidladi. Ishbilarmon doira vakillarini qo‘shma loyihalar va tashabbuslarni amalga oshirishda faol ishtirok etishga chaqirdi.

Majlis doirasida bir qator yangi yirik investitsiya loyihalarini amalga oshirish boshlangani e’lon qilindi.

Umuman, kengash doirasida savdo-iqtisodiy, ilmiy-texnik va gumanitar sohalarda hamkorlikni rivojlantirish bo‘yicha hududlararo hamkorlik hujjatlari va bitimlar to‘plami imzolandi.

Ziyodulla JONIBEKOV,
Ikrom AVVALBOYEV,
O‘zA muxbirlari

IKKI TOMONLAMA SHERIKLIK VA DO‘STLIK MUNOSABATLARI JADAL RIVOJLANMOQDA

Boshlanishi 1-betda

XALQARO EKSPERTLAR FIKRI

Maks Sey,
Malayziyaning “Kingsley Strategic Institute” tahlil markazi ijrochi direktori:

— Rossiya Prezidentining tashrifi O‘zbekiston va Rossiya o‘rtasidagi yuksak ishonch hamda o‘zaro anglashuv darajasi bilan ajralib turadigan ikki tomonlama munosabatlar mustahkamlanib borayotganidan dalolat beradi.

Ikki davlat rahbarlarining tovar ayirboshlash hajmini ko‘paytirish, strategik sheriklik munosabatlarini mustahkamlash va avval erishilgan kelishuvlarni amalga oshirishga qaratilgan oliy darajadagi muzokaralari siyosiy va iqtisodiy hamkorlikni yanada chuqurlashtirishga xizmat qilishi shubhasiz.

Mamlakatlar rahbarlari ishtirokida O‘zbekiston va Rossiya hududlari kengashining birinchi yig‘ilishining o‘tkazilishi alohida e’tiborga loyiqdir. Xususan, ushbu forumda ishtirok etish uchun Rossiyaning 18 gubernatori Toshkentga keldi. Bunday yondashuv ikki davlat o‘rtasidagi hududlararo hamkorlikni mustahkamlashdagi muvaffaqiyatlardan dalolat beradi.

Shu nuqtayi nazardan, keyingi yillarda O‘zbekiston — Rossiya hamkorligi, xususan, savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy sohalarda sifat jihatidan yuqori bosqichga ko‘tarilganini alohida ta’kidlamoqchiman. Savdo aylanmasi va loyihalar soni muttasil oshib, korxonalar va hududlar o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlik faollashdi. Xususan, 2023-yilda ikki davlat o‘rtasidagi tovar ayirboshlash hajmi sezilarli darajada o‘sdi va 10 milliard dollardan oshdi. Joriy yil birinchi choragida bu ko‘rsatkichlar o‘sishda davom etdi.

Qayd etish kerakki, sammit doirasida ikki tomonlama hujjatlarning yangi paketi qabul qilingani va ular amalda tatbiq etilishi, shubhasiz, davlatlar o‘rtasidagi savdo-iqtisodiy, sarmoyaviy, ilmiy-gumanitar, transport va logistika sohasidagi hamkorlikni, shuningdek, ikki davlat aholisi turmush darajasini yanada oshirish va boshqa sohalardagi o‘zaro aloqalarni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Tashrif natijalari mamlakatlar o‘rtasidagi sheriklik va do‘stlik munosabatlarini yanada rivojlantirishga kuchli turtki berishiga hamda O‘zbekiston va Rossiya o‘rtasidagi hududlararo hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqishiga ishonchim komil.

Xolid Mahmud,
pokistonlik tadbirkor, “Novugen Pharma” kompaniyasi asoschisi:

— E’tiborlisi, bu Rossiya rahbarining Prezident etib qayta saylanganidan so‘ng Xitoy va Belarusdan keyingi uchinchi xorijiy tashrifi sanaladi. Mubolag‘asiz aytish mumkinki, bu O‘zbekiston va Rossiya o‘rtasidagi alohida munosabatlardan dalolat beradi.

Ikki davlat o‘rtasidagi izchil rivojlanayotgan iqtisodiy aloqalar nafaqat O‘zbekiston va butun mintaqa, balki Pokiston uchun ham katta ahamiyatga ega. Siyosatchilarimiz, ishbilarmonlarimiz ikki tomonlama uchrashuv va muzokaralarning borishini diqqat bilan kuzatdi.

O‘zbekiston nafaqat Pokistonning mintaqadagi strategik savdo-iqtisodiy hamkori, balki Rossiya va MDHning boshqa mamlakatlarida mahsulotlarimizni ilgari surish bo‘yicha tranzit mamlakat hamdir.

Shu bois, biz O‘zbekiston — Rossiya munosabatlarining yanada rivojlanishi va chuqurlashishini, ikki mamlakat o‘rtasidagi har tomonlama strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlarini qo‘llab-quvvatlaymiz.

O‘zbekiston va Rossiya barcha darajalarda, jumladan, mintaqalararo ham o‘z orbitasiga tobora ko‘proq yangi ishtirokchilarni jalb etgan holda jadal va keng ko‘lamli aloqalarni davom ettirmoqda. Shuningdek, mamlakatlar BMT, MDH, SHHT va boshqa global hamda mintaqaviy tuzilmalar doirasida ham bir-birining tashabbuslarini faol qo‘llab-quvvatlab kelayotir.

Sirdaryo viloyatida tashkil etilgan “Novugen Pharma” kompaniyamiz bir necha yildan buyon O‘zbekiston farmatsevtika bozorida muvaffaqiyatli faoliyat yuritib kelmoqda.

O‘zbekiston — Rossiya savdo-iqtisodiy munosabatlari o‘zbek tovarlari va xizmatlarini sotish uchun qanchalik muhim ekanini shaxsiy tajribamdan bilaman. Chunki kompaniyamiz O‘zbekistonda ham faoliyat olib boradi. O‘zbekistonda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarimizning bir qismi Rossiya va MDHning boshqa davlatlariga eksport qilinmoqda. Shuning uchun biz O‘zbekiston va Rossiya rahbarlari o‘rtasidagi kelishuvlarga katta ahamiyat qaratamiz.

Majed at-Turkiy,
Axborot va rus-arab tadqiqotlari markazi direktori (Saudiya Arabistoni):

— Tashrif O‘zbekiston bilan Rossiya o‘rtasidagi sheriklik va strategik ittifoqchilik munosabatlarini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi. Shuningdek, ikki davlat o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlikning yuksak darajasini tasdiqlaydi. Chunki bu Rossiya Prezidentining davlat rahbari etib qayta saylanganidan keyin Xitoy va Belarusga tashriflari yakunlari bo‘yicha xorijiy safarlarining ustuvor yo‘nalishlaridan biridir.

Tashrif 2005-yilda imzolangan Ittifoqchilik munosabatlari to‘g‘risidagi shartnoma va 2022-yildagi Keng qamrovli strategik sheriklik to‘g‘risidagi deklaratsiya doirasida bo‘lib o‘tdi. Bugungi kunda 370 dan ortiq hujjatdan iborat mustahkam shartnomaviy-huquqiy baza O‘zbekiston va Rossiya xalqlarining taraqqiyoti hamda farovonligi yo‘lida o‘zaro manfaatli va ko‘p qirrali sheriklikni yanada chuqurlashtirish uchun mustahkam asos bo‘layotir.

Ikki tomonlama asosda ham, xalqaro birlashmalar doirasida ham amalga oshirilayotgan o‘zaro hamkorlikning ahamiyati “global janub” tomonidan jahon muvozanatini saqlash va umumbashariy adolatli jamiyatga erishish uchun ko‘p qutbli dunyoni barpo etish yo‘lidagi xalqaro o‘zgarishlar nuqtayi nazaridan ham ko‘rib chiqilishi kerak.

Xalqaro kuzatuvchilar ta’kidlashicha, tashrif natijalari ikki tomonlama, hatto mintaqaviy doiradan ham oshib, xalqaro miqyosda o‘z ta’sirini ko‘rsatadi.

Sheradil Baktigulov,
Qirg‘iziston Prezidenti huzuridagi Strategik tadqiqotlar milliy instituti ilmiy xodimi:

— O‘sib borayotgan ikki tomonlama hamkorlik ko‘rsatkichlaridan biri bu — o‘zaro tovar ayirboshlash bo‘lib, u allaqachon o‘n milliard dollarlik dovondan oshgan.

Ikki davlat o‘rtasidagi hamkorlik ko‘plab sohalarda, jumladan, energetika, aerokosmik, kimyo muhandisligi, ta’lim, transport, qishloq xo‘jaligi va boshqa yo‘nalishlarda ham izchil rivojlanmoqda.

Prezident Vladimir Putinning qayta saylanganidan keyingi davlat tashrifi O‘zbekiston uchun alohida ahamiyatga ega. Vladimir Putin o‘zining inauguratsiya marosimidagi nutqida Rossiya tashqi siyosatida Markaziy Osiyo davlatlari bilan hamkorlikni mustahkamlash ustuvor yo‘nalish ekanini tasdiqladi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev 2016-yilda O‘zbekistonning mintaqadagi qo‘shnilari bilan hamkorligi ustuvorlik kasb etishini e’lon qilgan edi. Ko‘rib turganimizdek, har ikki Prezidentning tashqi siyosat yo‘lida o‘xshash strategik qarashlari mavjud.

Qolaversa, O‘zbekiston Rossiyaning Markaziy Osiyo mintaqasidagi strategik hamkori va ittifoqchisidir. Ikki davlat o‘rtasidagi munosabatlar ishonchli va do‘stona siyosiy muloqot bilan ajralib turadi. Hukumatlararo juda yaxshi muloqot o‘rnatilgan. Uning ishonchliligini har ikki davlat hukumat rahbarlari darajasida Qo‘shma komissiya tuzilgani tasdiqlaydi. Qo‘shma komissiya doirasida ikki tomonlama faoliyatning barcha masalalari bo‘yicha sa’y-harakatlar muvofiqlashtirilmoqda.

Shu o‘rinda qayd etish kerakki, O‘zbekiston va Rossiya o‘rtasidagi munosabatlar juda mustahkam, Prezidentlar Shavkat Mirziyoyev va Vladimir Putin esa ishonchli do‘stlardir. Shuning uchun, ishonch bilan aytish mumkinki, ikki davlat rahbarlari rahnamoligida O‘zbekiston va Rossiya o‘rtasidagi hamkorlikni muvofiqlashtirish bo‘yicha strategik sheriklik bugungi kunda o‘zining eng yaxshi tarixiy davrini boshdan kechiryapti.

Eng muhimi, bunday hamkorlik nafaqat O‘zbekiston va Rossiya aholisi, balki butun Markaziy Osiyo xalqlari farovonligini oshirishga har tomonlama ta’sir ko‘rsatmoqda.

“Dunyo” AA

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining

F A R M O N I

OLIY VA PROFESSIONAL TA’LIM TASHKILOTLARI TALABALARI VA O‘QUVCHILARIGA BUDJET MABLAG‘LARI HISOBIDAN TA’LIM KREDITINI AJRATISH TARTIBINI TAKOMILLASHTIRISH TO‘G‘RISIDA

Boshlanishi 1-betda

2. Belgilansinki:

a) ta’lim krediti:

oliy ta’lim tashkilotlari talabalari uchun — talabalar to‘g‘risidagi ma’lumotlar Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining “Talabalarga shartnoma asosida ko‘rsatiladigan xizmatlar hisobini yuritish”

(kontrakt.edu.uz) axborot tizimi va “Oliy ta’lim jarayonlarini boshqarish” (HEMIS) axborot tizimida mavjud bo‘lganda;

professional ta’lim tashkilotlari o‘quvchilari uchun — o‘quvchilar to‘g‘risidagi ma’lumotlar Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining “Professional ta’lim jarayonlarini boshqarish” (prof.edu.uz) axborot tizimida mavjud bo‘lganda ajratiladi;

b) o‘z dasturiy ta’minotiga ega bo‘lgan oliy va professional ta’lim tashkilotlari ta’lim kreditini olish uchun Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining tegishli axborot tizimlariga o‘z axborot tizimini integratsiya qilishi yoki ulardan foydalanishi majburiy hisoblanadi.

3. Quyidagilar:

a) Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi 2024-yil 1-iyulga qadar tashkiliy-huquqiy shakli va idoraviy bo‘ysunuvidan qat’i nazar, barcha oliy va professional ta’lim tashkilotlarining to‘lov-kontrakt shartnomasi “kontrakt.edu.uz” va “prof.edu.uz” axborot tizimlari orqali shakllantirilishini;

b) Iqtisodiyot va moliya vazirligi:

Raqamli texnologiyalar vazirligi Markaziy bank bilan birgalikda 2024/2025 o‘quv yili boshlangunga qadar ta’lim kreditini olish uchun arizalarni Iqtisodiyot va moliya vazirligining “Ta’lim krediti” axborot tizimi (ta’lim-krediti.mf.uz) va Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali topshirish imkoniyati yaratilishini;

“Ta’lim krediti” axborot tizimi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining tegishli axborot tizimlari bilan integratsiya qilinishini ta’minlasin.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga ilovaga muvofiq o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilsin.

5. Iqtisodiyot va moliya vazirligi ikki oy muddatda qonunchilik hujjatlariga ushbu farmondan kelib chiqadigan o‘zgartirish va qo‘shimchalar to‘g‘risida Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritsin.

6. Mazkur farmonning ijrosini nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri o‘rinbosari J.A.Qo‘chqorov zimmasiga yuklansin.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH. MIRZIYOYEV

Toshkent shahri,
2024-yil 27-may

Faxr

YOSHLAR — YURTIMIZNING UMIDI VA TAYANCHI

DAVLATIMIZNING ERTANGI KUNI, RAVNAQI ULAR QO‘LIDA

25-may kuni mamlakatimizdagi 10 mingdan ziyod maktabda so‘nggi qo‘ng‘iroq sadosi yangradi. Bu qo‘ng‘iroq, ayniqsa, 11-sinf bitiruvchilari uchun yanada hayajonli bo‘lgani aniq. Chunki 11 yil maktab bag‘rida bolalikning shodon damlarini, o‘smirlikning quvnoq, biroq mas’uliyatli davrini o‘tkazgan, bilim olgan, iste’dodini kashf qilgan yoshlar shu kuni katta hayotga qadam qo‘ydi. Ularni ustozlar, ota-onalar tabrikladi, ezgu tilaklar bildirdi.

Prezidentimiz mamlakatimiz maktablarini bitiruvchi o‘g‘il-qizlarga tabrik yo‘lladi. Bilim va iste’dodi, kuch-g‘ayratini yangi O‘zbekiston bunyodkori, jonajon yurtimizga munosib farzand bo‘lishdek ezgu maqsadga baxsh etishga bel bog‘lagan navqiron avlodni maktab ta’limini muvaffaqiyatli tugatayotgani bilan chin qalbdan samimiy tabriklab, oq yo‘l tiladi.

Tabrikda ta’kidlanganidek, mamlakatimizda navqiron avlod vakillarini har tomonlama barkamol insonlar etib tarbiyalash, qonuniy huquq va manfaatlarini ta’minlash, qobiliyat va salohiyatini ro‘yobga chiqarishga juda katta e’tibor qaratilmoqda. Prezidentimizning shu yil 24-maydagi “Oliy ta’lim tashkilotlariga o‘qishga qabul qilish va davlat buyurtmasini joylashtirish tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”gi farmoni ana shu e’tibor natijasidir. Mazkur hujjat katta hayotga qadam qo‘yayotgan yoshlar uchun yangi imkoniyatlar eshigini ochadi.

Odiljon IMINOV, Oliy Majlis Senatining Fan, ta’lim va sog‘liqni saqlash masalalari qo‘mitasi raisi:

— Prezidentimizning maktab bitiruvchilariga yo‘llagan tabrigi yoshlarni juda ruhlantirib yubordi. Tabrik mazmuniga e’tibor qaratsak, mamlakatimiz kelajagini belgilaydigan yoshlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlovchi, kelajakka intilishga undovchi ruhda ekanini alohida e’tirof etish lozim. Chunki davlatimiz rahbari bitiruvchilarga tabrigi orqali yurtimizda yoshlarning ta’lim olishi, ma’naviyatli, ma’rifatli shaxs bo‘lib tarbiyalanishi uchun qilinayotgan ishlarga alohida to‘xtaldi. Jumladan, ilm-fan, sport, san’at va adabiyot yo‘nalishlarida xalqaro me’yorlarga mos ravishda ta’lim jarayonini tashkil qilishda barcha imkoniyat yaratilayotganini ta’kidladi.

Ta’lim tizimidagi islohotlar, ayniqsa, maktab bitiruvchilarini oliy ta’limga qabul qilish bo‘yicha yaratilayotgan imkoniyatlar beqiyos o‘zgarishlarga yuz tutayotganidan dalolat. Sport, adabiyot yoki san’at yo‘nalishlaridagi musobaqalar, tanlovlarda qatnashib, yuqori natijalarga erishgan yoshlarga oliy ta’lim muassasalariga kirishda yoki xotin-qizlarga magistratura bosqichida o‘qishi uchun berilayotgan imtiyozlarning barchasi yoshlarimizga qaratilayotgan e’tibor natijasidir.

Yoshlarning bu imkoniyatlardan unumli foydalanib, bilimini oshirishi va kelgusida jahon andazalariga mos kadr sifatida shakllanishi mamlakatimizning har tomonlama rivojlanishiga hissa bo‘lib qo‘shiladi.

Farrux QURBONOV, Buxoro viloyati maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmasi boshlig‘i:

— Yana bir o‘quv yili yakuniga yetdi. Viloyatimiz maktablarining 11-sinfini 21 ming 860 o‘quvchi tamomladi. Mustaqil hayot sari uchirma bo‘layotgan bitiruvchilarimizning 727 nafari oltin, 132 nafari kumush medalga munosib ko‘rildi. O‘qish va jamoat ishlarida faol qatnashib, tengdoshlariga o‘rnak bo‘lgan bunday iqtidorli o‘quvchilar bilan faxrlanamiz.

Yurtimizda yoshlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, iqtidorini yuzaga chiqarish uchun barcha imkoniyat yaratilgan. Umumta’lim maktablarida o‘quvchilarga ikkita xorijiy til va kasb-hunar o‘rgatish tizimi yo‘lga qo‘yilgani, davlat umumta’lim maktablari bilan bir qatorda nodavlat maktablar, Prezident ta’lim muassasalari, ixtisoslashtirilgan va ijod maktablari faoliyat yuritayotgani ushbu tizimda qisqa muddatda chuqur tarkibiy va sifat o‘zgarishi yuz berganini ko‘rsatadi. Shuningdek, hatto chekka-chekka hududlarda ham zamonaviy maktablar barpo etilayotgani, mavjud ta’lim muassasalarida yoshlar sifatli ta’lim-tarbiya olishi uchun qulay shart-sharoit yaratilayotgani ham fikrimiz dalilidir.

Ayni paytda viloyatimizda 548 ta umumta’lim maktabi, 1 ta Prezident ta’lim muassasasi, 12 ta ixtisoslashtirilgan maktab faoliyat yuritmoqda. Ularda o‘quvchilar chuqur bilim olishi, qobiliyatini namoyon etishi, yuksak ma’naviyat egalari, chinakam vatanparvar insonlar bo‘lib yetishishi uchun barcha imkoniyat yaratilgan.

Yakunlangan o‘quv yilida o‘quvchilarimizning 7 nafari fan olimpiadalarining respublika bosqichida g‘oliblar qatoridan joy oldi. Iqtidorli, ilmga chanqoq o‘quvchilarimizning 7 nafari xalqaro fan olimpiadalarida yuqori natija qayd etib, 1 ta oltin, 2 ta kumush va 4 ta bronza medalni qo‘lga kiritgan holda jahon maydonida yurtimiz sharafini munosib himoya qildi.

Bugun maktab partasidayoq nufuzli xorijiy va mahalliy oliygohlar talabasi bo‘lish imkoniyatini qo‘lga kiritayotgan o‘quvchilarimiz safi tobora kengayib bormoqda. Joriy yilda bunday iqtidorli yigit-qizlarimiz soni 350 nafardan oshdi. Davlatimiz rahbarining bitiruvchilarga tabrigi ular uchun mana shu maqsad yo‘lidagi harakatga alohida ruh bag‘ishladi.

Tabrikni nafaqat mustaqil hayot ostonasida turgan o‘quvchilarimiz, balki ota-onalar va biz — ustozlar ham zo‘r hayajon bilan tingladik.

“Biz jahonga ilm-ma’rifat, ma’naviy boylik yetkazib bergan ne-ne ulug‘ zotlarning avlodimiz. Ularga xos bo‘lgan noyob xususiyatlar, ular yaratgan an’analar bugun har birimizning qalbimizda, ongimizda va hayotimizda yashamoqda.

Endilikda biz ana shu buyuk ajdodlarimizning chinakam davomchilari bo‘lgan qalbi qaynoq yoshlarimizning yuksak ma’naviy va intellektual salohiyati, ularning dunyoni lol qoldiruvchi yutuqlari bilan ham faxrlanishga haqlimiz.

Hech shubhasiz, hayotda yuksak natijalarga erishish uchun tinimsiz harakat, shijoat va jasorat talab etiladi. Sizlarning chuqur bilim olish, zamonaviy kasb-hunarlarni o‘rganish orqali Vatanimizga munosib farzandlar bo‘lib yetishishingiz va uning taqdiri uchun mas’uliyatni zimmangizga olishingizga ishonaman”, deyiladi tabrikda.

Yoshlar o‘zlariga bildirilgan bu katta ishonchni, albatta, oqlaydi, deb umid qilamiz.

Jonibek BAXTIYOROV, Xiva shahridagi Prezident maktabi bitiruvchisi:

— So‘nggi qo‘ng‘iroq jaranglashi oldidan davlatimiz rahbarining bitiruvchi yoshlarga bayram tabrigi o‘qib eshittirildi. Tabrikdagi “Har biringiz ustozlaringiz va ota-onangiz qalbingizga singdirgan qadriyatlarga hamisha sodiq bo‘lib, xalqimizning bebaho merosini yanada boyitishga, yurtimizning yorug‘ kelajagiga hissa qo‘shishga intiling”, degan chaqiriq meni ruhlantirdi.

Ko‘proq ilm olishimiz, jahon andazalariga mos o‘qishimiz uchun keng imkoniyatlar yaratilmoqda. Jumladan, Prezidentimizning “Oliy ta’lim tashkilotlariga o‘qishga qabul qilish va davlat buyurtmasini joylashtirish tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”gi farmoniga asosan, 2024/2025-o‘quv yilidan boshlab bakalavriat va magistraturaga qabul qilingan talabalarga ta’lim granti bir o‘quv yili uchun ajratilishi, ta’lim granti asosida tahsil olgan talabalarning o‘qishni tamomlaganidan so‘ng kamida 3 yil ishlab berish majburiyati bekor qilinishi, magistratura bosqichida o‘qishni davom ettirish uchun til bilish darajasi pasaytirilgani biz, yoshlarga yaratilayotgan imkoniyatlarning yaqqol namunasidir.

Biz bundan unumli foydalanib, bilimimizni yanada oshirishimiz, chet el talabalari bilan bellasha oladigan darajaga yetishimiz, ota-onamiz, yurtimiz va Prezidentimiz ishonchini oqlashimiz lozim.

Fursatdan foydalanib, katta hayotga qadam qo‘yayotgan tengdoshlarimga bu yo‘lda uchraydigan qiyinchiliklarni sabot bilan yengib o‘tishni, o‘z maqsadlariga yetishni tilayman. Ilm olish yo‘lida bir dam tin olmasligimiz lozim. Shiddat bilan rivojlanib borayotgan axborot asrida bir soniya to‘xtashimiz boshqalar bizdan o‘zib ketishiga sabab bo‘ladi. Shunday ekan, bizga bildirilayotgan yuksak ishonchni oqlashimiz, davlatimiz bayrog‘ini ko‘kka ko‘tarishimiz, o‘zbek degan nomni dunyoga tanitishimiz kerak.

Hulkaroy XUDOYQULOVA, Toshkent shahri Yashnobod tumanidagi 307-IDUM bitiruvchisi:

— Qo‘ng‘iroq sadolari har birimizning qalbimizni hayajonga soladi: xoh u birinchi qo‘ng‘iroq bo‘lsin, xoh so‘nggi qo‘ng‘iroq. Har o‘quv yili jonajon maktabimiz bizni qo‘ng‘iroqning jo‘shqin sadosi ostidan kutib olgan, so‘nggi qo‘ng‘iroq sadosi bilan ta’tilga kuzatgan. Bu yilgisi katta hayotga yo‘llovchi ovoz bo‘ldi.

Prezidentimizning bitiruvchilarga tabrigini ishtiyoq bilan tingladik. Davlatimiz rahbari “Hech qachon orzu qilishdan to‘xtamang, katta maqsadlar yo‘lida imkoniyatlaringizni sinab ko‘rishdan, bu yo‘lda xato qilish va ulardan saboq olishdan qo‘rqmang. Chunki xalqimiz sizlarga katta umid va ishonch bilan qaramoqda.

Sizlarning yangi g‘oya va tashabbuslaringiz, ishtiyoqingiz va kuchingiz nafaqat O‘zbekistonni, balki butun dunyoni o‘zgartirishi mumkin. Shuning uchun har qanday holatda ham o‘z oldingizga qo‘ygan ezgu maqsadingizdan ortga chekinmang”, deya bizni ruhlantirdi. Bu safdagi yoshlarning barchasi o‘z oldiga ezgu maqsadlar qo‘ygan. Men O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universitetiga o‘qishga kirmoqchiman. Maqsadim — yetuk jurnalist bo‘lish. Bu istagim ushalishi yo‘lida puxta hozirlik ko‘ryapman.

“Yangi O‘zbekiston” muxbirlari Bashorat YUNUSOVA, Mansurbek JABBOROV yozib oldi.

Islohotlar amalda

MEHNAT BOZORI VA TA’LIM UYG‘UNLIGI

Bugun kambag‘allikni qisqartirish va aholi bandligini ta’minlash uchun juda katta kuch va energiya sarflanyapti. Albatta, bu kechiktirib bo‘lmas vazifa. Muammolarni butunlay bartaraf etib bo‘lmaydi. Uning sabablari hal etilgachgina masalaga to‘la yechim topiladi. Ijtimoiy-iqtisodiy masalalarning barchasiga yagona yechim to‘g‘ri ta’lim-tarbiyadir.

Yaqinda bir sinfdoshim bilan suhbatlashdim. U uzoq yillar xorijda mehnat qilgan. Hozir Toshkent shahrida ishlayapti.

— Zo‘r ish chiqdi, qurilishda brigada boshlig‘i bo‘lish kerak ekan, diplomim yo‘qligi pand berdi, — dedi u. — Shuning uchun bu yil o‘qishga topshirsammikan, deb turibman.

U xorijda qurilish sohasida ishlab, imorat tiklashning hadisini olgan. Ammo ish beruvchi quruq gaplariga ishonib, tanishimga mas’uliyatli vazifani topshira olmaydi. Unga imoratning chizmasini tushunadigan oliy ma’lumotli mutaxassislar kerak. Bizdagi aksariyat muammolar sababi esa aynan shunda. Ya’ni ta’lim va iqtisodiyot tarmoqlari bir-biridan uzilib qolgan edi. Bunda bo‘shliq oqibatida ta’lim dargohlari ehtiyoj kam bo‘lgan mutaxassislarni tayyorlaydi. Real hayotdagi bo‘sh ish o‘rinlariga esa nomzod topilmaydi. So‘ng har ikki tomon birdek jabr ko‘radi. Ish beruvchilar kadrlar yo‘qligidan, fuqarolar esa tayinli ish yetishmasligidan noliydi.

Yurtimizda ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar bilan bir vaqtda ta’limga katta e’tibor berilmoqda. Bugun qiynayotgan muammolar joyida hal etilib, keltirib chiqarayotgan sabablar o‘z vaqtida bartaraf etilmoqda.

Prezidentimizning shu yil 24-maydagi “Oliy ta’lim tashkilotlariga o‘qishga qabul qilish va davlat buyurtmasini joylashtirish tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”gi farmoni sohadagi islohotlarning uzviy davomi sifatida yangi bosqichga zamin bo‘ldi. Zero, mazkur hujjat kadrlar tayyorlashni iqtisodiyotning rivojlanayotgan tarmoq va sohalariga manzilli yo‘naltirishga qaratilgani bilan ham muhim. Sodda tushuntirsak, endi oliy ta’limga qabul qilishda kadrlarga ehtiyoj hisobga olinadi. Mehnat bozori o‘rganiladi. Natijada kelgusida bitiruvchilar ish topishga qiynalmaydi. Xo‘sh, mazkur ishlar qanday qilinadi?

Farmonga ko‘ra, 2024/2025-o‘quv yili qabulidan boshlab mazkur yo‘nalishdagi o‘zgarishlarga ilk qadam tashlanadi. Ya’ni davlat buyurtmasi parametrlarini davlat oliy ta’lim muassasalari kesimida taqsimlash amaliyoti bekor qilinadi. Uning o‘rniga bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklari bo‘yicha kunduzgi ta’lim shaklida tasdiqlash tartibi joriy etiladi. E’tiborlisi, davlat buyurtmasi bo‘yicha kvotalar taqsimotida muhandislik, tibbiyot, aniq va tabiiy fanlar bilim sohalariga ustuvorlik beriladi.

Yana bir muhim jihati, davlat buyurtmasining sohadagi o‘zgarishlarga mos ravishda o‘zgarib turishidir. Ya’ni 2025-yildan boshlab davlat buyurtmasi parametrlari Iqtisodiyot

va moliya hamda Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirliklari ma’lumotlari asosida shakllantiriladi. Mazkur vazirliklar oliy ma’lumotli kadrlarga talabni prognoz qilib boradi. Shunga muvofiq davlat buyurtmasi har 4 yilda yangilanadi.

Deylik, bu yil quruvchi-muhandislar uchun ehtiyoj katta. Kvota shunga qarab belgilanadi. To‘rt yilda esa mazkur yo‘nalish talabalari ta’limni tamomlab, ishga joylasha boshlaydi. Mana shu o‘sishga qarab, vazirliklar holatni tahlil qiladi va kvotani yana oshirish yoki kamaytirish haqida xulosa beradi. Ushbu amaliyot sabab shu vaqtgacha bizni qiynab kelayotgan asosiy muammo — kadrlar va ishga ehtiyoj muvozanatga keltiriladi.

Shuningdek, hududlar, soha va tarmoqlarning oliy ma’lumotli kadrlarga ehtiyojini ta’minlash uchun davlat buyurtmasi parametrlari doirasida maqsadli qabul kvotalari ajratiladi. Buning uchun maqsadli qabul buyurtmachilari kadrlarga ehtiyojlarini Davlat komissiyasiga taqdim etadi. Shu asosda maqsadli qabul ro‘yxati shakllanadi. Mazkur buyurtmani kimlar berishi mumkin, degan savolga ham hujjatda aniq javob keltirilgan. Unga ko‘ra, davlat organlari va tashkilotlari hamda ustav fondi (ustav kapitali)da davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo‘lgan xo‘jalik jamiyatlari maqsadli qabul buyurtmachilaridir.

Shu o‘rinda kichik mulohaza: global dunyoda o‘zgarishlar tez sodir bo‘lyapti. Kechagina sun’iy intellekt, degan tushuncha faqat tasavvurimizdagina mavjud edi. Bugun u hayotimizning ko‘plab jabhasiga kirib kelyapti. Bundan tashqari, yana ko‘plab texnik o‘zgarishlar ham ayrim kasb egalariga ehtiyojni so‘ndirmoqda. Ayni paytda yangi tarmoqlar shakllanib, biz bilmaydigan kasblar vujudga kelmoqda.

Masalan, yaqin yillargacha biz uchun ay-ti mutaxassislar “begona” edi. Hozir u eng ko‘p ehtiyoj sezilayotgan sohaga aylanib bormoqda. Ayrim kasblar esa ikkinchi umrini boshlayapti. Yurtimizda turizmga qaratilgan e’tibor tufayli soha keskin jonlandi. Natijada unut bo‘lib borayotgan kasblar, xususan, hunarmandlik uchun yangi davr boshlandi. Umuman olganda, kasblar bozori kun sayin o‘zgarib, turlanib bormoqda. Bunday vaqtda mutaxassislarga ehtiyojni ta’minlab borish oson kechmaydi. Chunki bitta yo‘nalish bo‘yicha kadr tayyorlash uchun kamida to‘rt yil kerak. Demak, mazkur yo‘nalish ilmiy tadqiq qilinishi shart.

Hujjatda sohaning shu jihatlari ham hisobga olingan. 2024-yil yakuniga qadar mehnat bozorida kutilayotgan o‘zgarishlar ilmiy tadqiq qilinadi. Bunda ahamiyatini yo‘qotib boradigan hamda yangi paydo bo‘ladigan kasblar (lavozimlar) ro‘yxati, ularga qo‘yiladigan malaka talablari va kompetensiyalar shakllantiriladi. Jamlangan ma’lumotlar asosida 2025-yil 1-mayga qadar “O‘zbekiston yangi kasblar atlasi” elektron platformasi yaratiladi. E’tiborlisi, mazkur atlas har yili yangilab boriladi. Bu ishlarga Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik, Iqtisodiyot va moliya hamda Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirliklari, Savdo-sanoat palatasi va ish beruvchilar uyushmalari mas’ul.

Bizda oliy ta’lim yo‘nalishini tanlashda qiziq tendensiya bor. Abituriyentlar ba’zida qaysi yo‘nalishga talabgor kam bo‘lsa, shuni tanlaydi. Bu orqali ular o‘qishga qabul qilinish ehtimolini oshiradi. Ammo uzoq kelajakda aynan shu tanlov ularning ziyoniga ishlashiga sabab bo‘ladi. Bunga mazkur jihatlar bilan yechim berildi. Shunga qaramay, malakali kadrlar tayyorlashga jiddiy e’tibor berilib, qabul va o‘qish jarayoniga ham o‘zgarishlar joriy qilinmoqda. Xo‘sh, bu borada bizni qanday o‘zgarishlar kutmoqda?

Endi qabul jarayoni keskin o‘zgaradi. 2024/2025-o‘quv yilidan boshlab oliy ta’lim muassasalariga qabul qilish imtihoni “avval test, so‘ng tanlov” asosida ikki bosqichda o‘tkaziladi. Ya’ni tanlagan sohangizga mos keladigan fanlar majmuasini tanlab, test sinovi uchun ariza berasiz. Bu birinchi bosqich bo‘lib, abituriyentlar har yili 5-iyundan 25-iyunga qadar ro‘yxatdan o‘tadi. Shu jarayonda abituriyent ta’lim tili va test topshirish hududini tanlaydi. Tanlov asosida test sinovidan o‘tadi. Testdan so‘ng bir kun ichida natijalar e’lon qilinadi.

Ikkinchi bosqich test sinovlari to‘liq yakunlanganidan so‘ng 15 kun davomida bo‘lib o‘tadi. Shu muddatda ular oliy ta’lim yo‘nalishi va shaklini tanlaydi. Sodda qilib aytganda, abituriyentlarda to‘plagan baliga munosib ta’lim yo‘nalishini tanlash imkoni bo‘ladi. Shu orqali yoshlarga ta’lim olishda teng imkoniyat yaratiladi. Ularning salohiyati va bilimiga munosib kasb tanlash yo‘li ochib beriladi.

Buning eng muhim jihati shundaki, endi test sinovi tavakkalchilikka asoslanmaydi. Masalan, o‘tgan yillarda abituriyentlar topshirilgan hujjatlar ko‘lamiga qarab, taxminan shuncha ball to‘plasam, o‘qishga qabul qilinaman, degan taxmin qilardi. Endi hujjat topshirishdan oldin bunday bo‘lmaydi. Imkon qadar ko‘proq ball to‘plash shart bo‘ladi. Shundagina u o‘zi istagan ta’lim dargohi va yo‘nalishini tanlash imkonini qo‘lga kiritadi. Bu o‘z-o‘zidan raqobatni, yoshlarning ilm olishga rag‘batini kuchaytiradi. Eng qizig‘i, bu rag‘bat va raqobat o‘qishga qabul qilingach, so‘nib qolmaydi. Chunki davlat granti asosida o‘qish ham har yili ana shunday sinov natijasida hal etiladi.

2024/2025-o‘quv yilidan boshlab bakalavriat va magistraturaga qabul qilingan talabalarga ta’lim granti bir o‘quv yili uchun ajratiladi. Demak, davlat granti asosida o‘qishga qabul qilingan talaba faqat bir yil shu imkoniyatdan foydalanishi mumkin. Keyingi o‘quv yillarida esa u shunga munosib ekanini yana isbotlashi kerak. Dastlab ta’lim granti birinchi kursda oliy ta’lim tashkilotlariga ajratilgan davlat buyurtmasi kvotasiga muvofiq kirish imtihonlarida yuqori ball to‘plagan talabalarga ajratiladi. Ikkinchi va undan keyingi kurslarda esa ta’lim granti yuqori akademik reyting ko‘rsatkichlariga erishgan va ijtimoiy faol talabalar orasida tabaqalashtirilgan tartibda qayta taqsimlanadi. Bu bevosita oliy ta’lim tashkilotlari tomonidan joriy etiladi.

Shu o‘rinda tabaqalashtirish nima, degan haqli savol tug‘iladi. Deylik, bitta oliy o‘quv yurtiga o‘nta grant o‘rni berilgan bo‘lsa, ta’lim muassasasi uni o‘n besh yoki undan ko‘proq talabaga bo‘lib berish imkoniga ega bo‘ladi. Ya’ni talabalarning iste’dodiga qarab, davlat grantlari taqsimlanadi. Stipendiya esa faqat to‘liq ta’lim grantini yutgan talabalarga to‘lanadi. O‘z o‘rnida, davlat grantidan ma’lum qismni yutgan talabalar uning foiziga qarab kontrakt to‘lovini amalga oshiradi. Tanlov jarayoni har yili takrorlanishi talabalar o‘rtasida raqobatni kuchaytiradi.

Yuqorida ijtimoiy-iqtisodiy masalalarning barchasiga ta’lim orqali yechim topilishi haqida aytgan edik. Mazkur farmon bilan milliy kadrlar salohiyatini oshirishga qaratilgan yangi davr boshlanyapti. Faqat buni to‘g‘ri tushunib, amaliyotga tatbiq eta olishimiz, vazifalarni o‘z vaqtida bajarishimiz kerak.

Boboravshan G‘OZIDDINOV, “Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Respublika bo‘yicha iste’molchilarga elektr energiyasi va tabiiy gaz uchun 14 trillion so‘mdan ortiq subsidiya berilyapti. Bu juda katta summa va uni sohani modernizatsiya qilishga sarflash orqali aholining elektr energiyasi hamda tabiiy gazga bo‘lgan ehtiyojini to‘laqonli qondirish mumkin.

YANGI O‘ZBEKISTON

2024-yil 28-may, 103-son

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz

BUGUNNING GAPI

NIMALAR SABAB BO‘LAYOTGANDI?

Elektr energiyasida tabaqalashgan narxlar borasida keltirilayotgan dalillar xususida

Dilshod ULUG‘MURODOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

O‘zbekistonda foydalanilgan elektr energiyasi uchun to‘lovlarning yangi tariflari belgilanganiga bir oy bo‘lyapti. Oshgan narx bo‘yicha hali deyarli to‘lov qilmadik ham. Lekin aksariyat iste’molchilar keyingi oy boshida elektr toki hayotimizda qanchalik muhim va uni nima uchun tejash kerakligini anglab yetsa, ajabmas. Binobarin, narxlarning tabaqalashgan tarzda belgilanishidan asosiy maqsad aholini uzluksiz elektr energiyasi bilan ta’minlash hamda iste’mol va to‘lov madaniyatini oshirishdan iborat. Harqalay, mutasaddilar o‘zgarishlarga ana shunday izoh-u tushuntirishlar bergandi.

Ochig‘i, uyimizda tez-tez chiroq o‘chib qolishi holatlari yodimizdan ko‘tarilgani yo‘q. Shu bilan birga, elektr energiyasi isrof qilinishi, aytaylik, keraksiz vaqtda chiroqni yoqib qo‘yish biz uchun hamon begona emas. Bunday holatlarga hozir ham ko‘p duch kelamiz.

“Hududiy elektr tarmoqlari” aksiyadorlik jamiyati axborot xizmati taqdim etgan ma’lumotlarga ko‘ra, bugun mamlakatimiz bo‘yicha elektr energiyasi iste’molchilariga bir va uch fazali 7,8 milliondan ortiq hisoblagich o‘rnatilgan. Shuningdek, transformator punktlarida hisoblagichlardan elektr energiyasi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni jamlovchi va uzatuvchi 92 ming 262 dona konsentrator qurilmasi hamda 85 ming 591 dona balans hisoblagich bor.

— Mazkur dasturiy ta’minot tufayli elektr energiyasi iste’molining ishonchli hisob-kitob mexanizmi shakllantirilib, energiya manbaidan oqilona va samarali foydalanishga imkon yaratildi hamda to‘lov intizomi mustahkamlandi, — deydi “Hududiy elektr tarmoqlari” aksiyadorlik jamiyatining “Elektr energiyasini avtomatlashtirish markazi” filiali direktori o‘rinbosari Diyorbek Nishonov. — Ya’ni iste’molchilar foydalangan elektr energiyasi uchun to‘lovni istalgan joyda mobil ilovalar yoxud to‘lov tizimlari orqali amalga oshirmoqda. Shuningdek, markazimiz respublika, viloyat, tuman (shahar) hamda mahallalar kesimida elektr energiyasi iste’molchilari ma’lumotlari saqlanishi, shu bilan birga, dasturiy ta’minot orqali elektr energiyasining soatlik, sutkalik, oylik va yillik balanslarini shakllantirish, ko‘p tariflik tizimda hisob-kitob yuritishi mumkin.

Qarzdor iste’molchilarni to‘liq avtomatik ravishda o‘chirish hamda sarf qilingan elektr energiyasi uchun to‘lov qilingandan so‘ng qayta yoqish, masofadan turib elektr hisoblagichlarni qayta dasturlash kabi vazifalar shu tizim orqali boshqariladi.

Endi elektr energiyasi va tabiiy gaz bo‘yicha yangi tariflarga to‘xtalsak. Aytish kerakki, bu har jihatdan o‘rganib chiqilgan. Masalan, bir oylik ijtimoiy me’yor 200 kVt/soat deb belgilandi. Nima uchun? Chunki mavjud aholi iste’molchilarining deyarli 70 foizga yaqinini aynan 200 kVt/soat elektr energiyasi iste’mol qiluvchilar tashkil etadi. Shu jihatdan olganda, Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 16-aprel kuni qabul qilingan “Yoqilg‘i-energetika sohasida bozor mexanizmlarini joriy etishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori asosida elektr energiyasi hamda tabiiy gaz bir oylik iste’molining bazaviy me’yorlari tasdiqlanishi hayotiy zaruratdir. Chunki energetika tizimi subsidiyalanishi sababli aholi iste’moli uchun ushbu manbalarning narxi 2019-yildan buyon o‘zgarmay kelayotgan edi.

Yangi tariflar qay tarzda hisoblanadi? 300 kVt/soat elektr energiyasi iste’moli misolida buni ko‘rib chiqsak. Shu paytgacha abonentlar mazkur hajmdagi elektr energiyasi uchun 88,5 ming so‘m — 1 kVt/soat uchun 295 so‘m to‘lardi. 1-maydan boshlab 180 ming so‘m to‘lash kerak bo‘ladi:

• bazaviy tarifning 200 kVt/soati uchun — 1 kVt/soat uchun 450 so‘mdan 90 ming so‘m;

• keyingi 100 kVt/soat uchun — 900 so‘mdan yoki 90 ming so‘m oshirilgan tarif bo‘yicha.

Shunday qilib, 900 so‘mlik tarif butun miqdor uchun emas, faqat ijtimoiy me’yordan oshib ketgan hajmga qo‘llaniladi.

Albatta, iste’molchilarda haqli savol tug‘ilishi mumkin: nima uchun tabaqalashtirilgan tarif joriy etildi?

Tarifni bunday shaklda oshirish energetika tizimi uchun hayotiy zarurat edi. Sababi, generatsiya, taqsimlash kabi jarayonlarda eskirish bor. Bu bevosita elektr energiyasi to‘lovlari bilan ham bog‘liq masala. Qolaversa, tizimda 100 mingdan ortiq ishchi-xodim mehnat qiladi. Ularning ish haqi va ehtiyojini qondirish uchun ham mablag‘ zarur bo‘ladi.

O‘suvchi koeffitsiyent qo‘llanilishiga kelsak, elektr tannarxini bozor mexanizmlari asosida joriy etish o‘tgan yildan boshlangandi. Xususan, ulgurji iste’molchilar uchun tariflar tannarxga tenglashtirildi. Joriy yil 1-maydan boshlab esa aholi uchun tabaqalashtirilgan tarif bevosita tannarxga yaqinlashtirildi. Vaholanki, shu paytgacha o‘rtadagi tafovut davlat byudjetidan qoplanardi. Bu mexanizmning shu tarzda ishlashi tizim korxonalarining moliyaviy holati yomonlashuviga ham olib keldi.

Darhaqiqat, bugungi uzilishlarning asosiy sababi tarmoqlar haddan tashqari eskirganida. Ya’ni yurtimizdagi mavjud elektr uskunalarining 40 foizdan ortig‘i ish muddatini o‘tab bo‘lgan. Aynan shuning uchun o‘ta sovuq yoki jazirama issiq ob-havo sharoitida elektr toki o‘chib qolaveradi. Bu esa haqli e’tirozga olib keladi. Tarmoqlar eskirishi tufayli elektr energiyasini iste’molchiga yetkazib berishda yo‘qotishlar 20 foizgacha bo‘lmoqda. Vaholanki, rivojlangan davlatlarda bu miqdor 7-8 foizni tashkil qiladi.

> **Yangi tariflar qay tarzda hisoblanadi? 300 kVt/soat elektr energiyasi iste’moli misolida buni ko‘rib chiqsak. Shu paytgacha abonentlar mazkur hajmdagi elektr energiyasi uchun 88,5 ming so‘m — 1 kVt/soat uchun 295 so‘m to‘lardi. 1-maydan boshlab 180 ming so‘m to‘lash kerak bo‘ladi:**
> **• bazaviy tarifning 200 kVt/soati uchun — 1 kVt/soat uchun 450 so‘mdan 90 ming so‘m;**
> **• keyingi 100 kVt/soat uchun — 900 so‘mdan yoki 90 ming so‘m oshirilgan tarif bo‘yicha.**
> **Shunday qilib, 900 so‘mlik tarif butun miqdor uchun emas, faqat ijtimoiy me’yordan oshib ketgan hajmga qo‘llaniladi.**

Bundan tashqari, oxirgi yillarda juda ko‘p qurilish ishlari amalga oshirildi, yangi turar joylar bunyod etildi. Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi ma’lumotlariga qaraganda, 2017-2023-yillarda 351 ming 786 ta xonadonli 8405 ta ko‘p qavatli turar joy qurilib, foydalanishga topshirilgan. Birgina o‘tgan yilning o‘zida 84 ming 417 ta xonadonli 1893 ta ko‘p qavatli uy-joy barpo qilingan.

Mutaxassislar shu o‘rinda yana bir jihatga e’tibor qaratadi. Ularning hisobicha, har bir kvartirada o‘rtacha 3 ta xona, oshxona, hammom, hojatxona, balkon bor. Har biriga eng tejamkor bo‘lgan 12 vattli chiroq qo‘yilgan bo‘lsa, bir soatda 84 Vt, bir sutkada o‘rtacha 8 soat yoqilganda ham 672 Vt elektr energiyasi sarf bo‘lmoqda. Agar bu raqam 351 ming 786 taga ko‘paytirilsa, aholi shunchaki uyini yoritishga bir oyda 2016-yildagiga nisbatan qo‘shimcha 7,1 million kVt/soat elektr energiyasi sarflayotgan bo‘ladi. Bir yilga ko‘paytirilganda esa mazkur raqam 85,2 million kVt/soatga yetadi. Bu birgina tejamkor chiroq misolidagi raqamlar. Buning yoniga televizor, muzlatkich, sovitkich, mikroto‘lqinli pech, kir yuvish mashinasi, kompyuter, noutbuk, planshet, fen, dazmol, mobil telefon singari elektr jihozlarini ham qo‘shsak, farq bir necha yuz million kVt/soatga ko‘payadi. Tadbirkorlik faoliyati rivojlanayotgani, katta-kichik ishlab chiqarish subyektlari paydo bo‘layotganini inobatga olsak, miqdor yanada ortib ketaveradi.

> **2030-yilgacha yurtimizda “yashil” energetika manbalarini 27 gigavattga yetkazish rejalashtirilgan. Bu har yili 25 milliard kub metr tabiiy gazni iqtisod qilish, atmosferaga zararli tashlanmalarni 34 million tonnaga qisqartirishga xizmat qiladi. Bunday sa’y-harakatlar “yashil” energetika iqtisodiyotimizning drayverlaridan biriga, chinakam umummilliy harakatga aylanayotganini bildiradi.**



Tabaqalashgan narxlarda to‘lash masalasi ko‘tarilganda aholida turli fikrlar, e’tirozlar bo‘lgani bor gap. Lekin bugun baribir shunday xulosaga kelindi. Buni mutasaddilar yillar mobaynida elektr energiyasi va tabiiy gaz tannarxi qimmat bo‘lishiga qaramay, iste’molchilarga arzon yetkazib berilgani bilan izohladi. Shuningdek, subsidiyalash tizimiga adolatsiz yondashuv energiya ta’minotidagi beqarorlikka sabab bo‘layotgan asosiy omillardan biri edi.

Respublika bo‘yicha iste’molchilarga elektr energiyasi va tabiiy gaz uchun 14 trillion so‘mdan ortiq subsidiya berilyapti. Bu juda katta summa va uni sohani modernizatsiya qilishga sarflash orqali aholining elektr energiyasi hamda tabiiy gazga bo‘lgan ehtiyojini to‘laqonli qondirish mumkin.

Yana bir jihati, bundan 30-40 yil oldin bitta transformator hududdagi uylarda yoqiladigan o‘rtacha 3-4 mingta chiroq, har bitta xonadon uchun esa bitta televizor, bitta changyutkich va bitta muzlatkich hisobga olinib o‘rnatilgan. Bugun o‘sha transformator 10-15 mingta chiroq, aksariyat xonadonlarda 3-4 ta televizor, 2-3 ta muzlatkich, sovitkich, bir necha maishiy texnika va boshqa zamonaviy elektr jihozlari uchun elektr energiyasi yetkazib beryapti. Bu xuddi 50 kilo yuk ko‘tara oladigan odamga 250 kilo yuk berib, undan nolimasdan, egilmasdan ko‘tarishini talab etishga o‘xshaydi.

Bunday hollarga barham berish uchun esa tarmoqni chuqur modernizatsiya qilish kerak. Ammo bu tizimli va uzoq vaqt talab qiladigan jarayon. Xususan, 2030-yilga qadar katta kuchlanishni ko‘tara oladigan 9885 kilometr elektr simlari va umumiy quvvati 37 ming 290 megavatt-amper bo‘lgan 53 ta podstansiya qurilishi belgilangan. Shu bilan birga, 2024-2030-yillarda respublika hududlarida 0,4-110 kilovolt kuchlanishli taqsimlash elektr tarmoqlarini yangilash hamda modernizatsiya qilish dasturi bo‘yicha 93 ming 124 kilometr elektr uzatish tarmog‘ini, 20 ming 521 ta transformator punktini hamda 804 ta podstansiyani yangidan qurish, modernizatsiya va rekonstruksiya qilish rejalashtirilgan. Dastlabki hisob-kitoblarga ko‘ra, buning uchun 23 trillion 714,8 milliard so‘m talab etiladi.

Qisqasi, uzilishlarga barham berishning yagona yo‘li eskirgan tizimni yangilash va modernizatsiya qilishdir. Buning uchun esa sohaga qo‘shimcha mablag‘ kiritish, aholini energiya resurslaridan oqilona foydalanishga o‘rgatish kerak. Elektr va gaz tariflari o‘sishi, bir tomondan, tizimni modernizatsiya qilish uchun zarur mablag‘ni jalb etishga yordam bersa, ikkinchi tomondan, aholini elektr energiyasini tejashga o‘rgatib boradi.

Tugamaydigan manbamiz ham bor

Bular nima? Albatta, qayta tiklanuvchi energiya manbalari — shamol, quyosh nuri va suv. Ya’ni bugungi rivojlangan zamonda yirik tabiiy va sun’iy suv inshootlari — to‘g‘onlar, suv omborlari, shamol turbinalari/parraklari hamda quyosh panellari vositasida yorug‘likni elektrga aylantirish mumkin.

Tabiiy resurslar zaxirasi cheklangan. Davlatlarning geografik joylashuviga ko‘ra qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish imkoniyati ham turlicha. O‘zbekiston bu borada katta salohiyatga ega. Yurtimiz yer osti va ustki boyliklari qatorida oftobli osmoni, shamolli kengliklari, tezoqar daryolari bilan ham ajralib turadi. Shu bois, mamlakatimizda qayta tiklanuvchi energetikaga o‘tish bo‘yicha juda katta ishlar qilinmoqda. Jumladan, 2026-yilga qadar qayta tiklanuvchi energiya manbalari ulushini umumiy energetika tizimida 25 foizga yetkazish maqsad qilingan.

O‘tgan yil 27-dekabr kuni mamlakatimizning oltita hududida 5 ta quyosh va 1 ta shamol elektr stansiyasi ishga tushirildi. Bu energetika tizimini isloh qilish va barqarorligini ta’minlash bo‘yicha keng ko‘lamli dastur amalga oshirilayotganining yaqqol dalili bo‘ldi.

Keyingi yillarda tarmoqda xususiy sektor va yetakchi xorijiy kompaniyalar faoliyatiga qulay sharoitlar yaratildi. Ular ishtirokida O‘zbekistonda qayta tiklanuvchi energetika salohiyatini kengaytirishga qaratilgan ko‘plab loyihalar muvaffaqiyatli ro‘yobga chiqarilmoqda.

Prezidentimiz sohadagi kelgusi rejalarga to‘xtalib “Biz bugun amalga oshirayotgan ulkan ishlar energetika tarmog‘idagi islohotlarning navbatdagi qadamidir. Bu chora-tadbirlarni tizimli davom ettirib, raqobatli bozor mexanizmlariga bosqichma-bosqich o‘tamiz”, degandi.

Umuman, 2030-yilgacha yurtimizda “yashil” energetika manbalarini 27 gigavattga yetkazish rejalashtirilgan. Bu har yili 25 milliard kub metr tabiiy gazni iqtisod qilish, atmosferaga zararli tashlanmalarni 34 million tonnaga qisqartirishga xizmat qiladi. Bunday sa’y-harakatlar “yashil” energetika iqtisodiyotimizning drayverlaridan biriga, chinakam umummilliy harakatga aylanayotganini bildiradi. Zero, qayta tiklanuvchi energiya manbalari mamlakatni barqaror rivojlantirishda juda muhim ahamiyatga ega.

Tahlillarga ko‘ra, yurtimizda quyosh va shamol energiyasi salohiyati elektr energiyasiga bo‘lgan hozirgi ehtiyojni 10-12 barobar ortig‘i bilan qoplashga yetadi. Lekin shunday ulkan imkoniyat ancha yillar davomida ishga solinmagan edi. Keyingi davrda bu sohaga e’tibor tufayli “yashil” energiya manbalarini barpo qilish bo‘yicha katta dasturlarga kirishildi. Investorlar uchun jozibador muhit yaratildi.

Yurtimizda buning uchun investitsiya faol jalb qilinayotganiga sabab arzon va ekologik toza qo‘shimcha energiya manbalari yaratishdir. Muqobil energiya manbalari sohadagi aksariyat muammolarga yechim bo‘la oladi. Ammo uni iste’molchilarga yetkazish uchun ham mukammal va zamonaviy infratuzilma kerak. Uni esa faqat bozor qonunlari joriy qilingan holda yaratish mumkin.

Quruq gap bilan tejamkor bo‘lib qolmaymiz

Mutaxassislar oddiy chiroqni muayyan vaqt davomida o‘chirib qo‘yish orqali ham ancha mablag‘ va energiyani tejash mumkinligini hisoblab bergan. Chindan ham agar bugun mavjud 7 million 782 mingta abonentning har biri bir kunda 100 vattlik 1 dona cho‘g‘lanma lampani 10 soat o‘chirib qo‘ysa, bir yilda 2 milliard 801 million 520 ming kVt/soat, 1 dona energiyatejamkor LED lampani kechasi yoqib qo‘yishdan tiyilganida esa 308 million 167,2 ming kVt/soat elektr energiyasi tejab qolinadi. Shuningdek, bir dona cho‘g‘lanma lampani zamonaviy LED lampaga almashtirish orqali oyiga 22,4 kVt/soat, yiliga esa 268,8 kVt/soat elektr energiyasini iqtisod qilish mumkin. Ko‘ryapsizmi, bitta amal bilan qancha natijaga erishsa bo‘ladi!

Agar bunday tejamkorlik aholi orasida ommaviy tus olsa-chi?! Juda a’lo ish bo‘ladi. Lekin barchamiz ham tejamkormizmi? Mana shu katta savol. Elektr energiyasi ham mahsulot. Uni ishlab chiqarish uchun qancha mablag‘, kuch va vaqt sarflanadi. Shunday ekan, aholi sarflayotgan oylik yoki yillik elektr energiyasi hajmini o‘zi mustaqil nazorat va tahlil qilib borsa, o‘ziga yarasha xulosa qilsa, nur ustiga nur.

Demoqchi bo‘lganimiz, aholini elektr energiyasi bilan uzluksiz ta’minlashda energetika infratuzilmasini yangilash qanchalik muhim bo‘lsa, iste’mol madaniyatini oshirish ham shunchalik zarur. Binobarin, isrofgarchilik shundoq ham elektr energiyasi yetishmayotgan bir sharoitda barqarorlikka salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Hozir mutaxassislar orasida “energetik menejment” atamasi ommalashmoqda. Bu nima degani? Bunga ular “Bir oyda qancha gaz, qancha elektr energiyasi, qancha suv ishlatyapmiz, aniq javobga ega bo‘lishimiz kerak. Bekor oqib yotgan suvni berkitish, shunchaki yoniq turgan chiroqlarni o‘chirib yurish odatga aylanishi kerak”, deya javob beradi. Bu ishlar mablag‘ talab qilmaydi, katta tashvish tug‘dirmaydi ham, shunchaki hammadan bir oz mas’uliyatli bo‘lish talab etiladi, xolos. Narxlar o‘zgarishi esa odamlarning elektr energiyasidan tejab foydalanishiga turtki berishi kerak.

Uyg‘oq fikr

Butun insoniyat kabi jahondagi har bir xalq va millat ham o‘zining taraqqiyot tongiga qarab intiladi.

Shavkat MIRZIYOYEV,
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti

TARAQQIYOT TONGI

Dunyodagi xalqlar, davlatlar rivojida yangi kunning boshlanishi hamisha fayzli va tarovatli

Subhidam... Zulmat pardalari asta-sekin surilib, olam yorug‘likka chulg‘ana boshlaydi. Osmonda oq kemalardek suzib yurgan parqu bulutlar orasidan asta yuz ochayotgan quyosh nurlari bora-bora yorqinlashib, butun olamni nurafshon etadi. Ona zamin uzra gilamdek to‘shalgan yashil maysalardan to gurkirab barq urayotgan, qushlarning chug‘uri tutib ketgan qadrdon bog‘lar, osmonga bo‘ylashib, yangi kunga ta’zim qilayotgan azim chinorlar, bag‘rida qizg‘aldoqlarni allalab, ufqqa qadar yastanib yotgan qir-adirlaru mag‘rur pahlavonlardek ko‘krak kerib turgan, sodiq do‘stning yelkasidek purviqor tog‘largacha shu oftobning nuridan bahra oladi. Zamindan o‘z rizqini terayotgan chumolidan tortib, insoniyatga qadar shu nurga, yorug‘likka intilib yashaydi. Yaproqlar yuziga qo‘ngan billur shudringlar ham quyosh jilosi oldida tomchilarga aylanib to‘kiladi, kunduz tantanasi oldida butun koinot bosh egadi.

Bahodirjon ShERMUHAMMADOV,
pedagogika fanlari doktori, professor

Tong otar. Lolarang ufqda ko‘zim,
Sukut og‘ushida tin olar quyosh.

Ushbu satrlarda ham O‘zbekiston Qahramoni, xalq shoiri Erkin Vohidov tongni eng nafis so‘zlar bilan tarannum etar ekan, ko‘z o‘ngimizda sukut og‘ushida tin olayotgan quyosh timsolida tinchlik sururi bilan xotirjam yashayotgan odamlar hayoti, sokin ko‘chalar, qadrdon mahallalar gavdalanadi.

Ha, bizni qarshi olayotgan tongni olam, aslida, shunday muzaffarlik bilan kutib oladi. Qora tun changalida ziyo istab azoblangan koinot zimiston tutqunidan xalos bo‘lar ekan, yuzi anordek qizarib, quyoshdan la’l tus oladi va tabiat shirin entikadi.

Nihoyat tabiat uyg‘ona boshlaydi. Yangi kunning yorlig‘i bo‘lgan subhidam elning o‘zidek toza, qalbidek tiniq buloqlar, kelinchak tabassumidek beg‘ubor, ulug‘lar duosidek muqaddas tuproq, ona kaftidek issiq maskanni ko‘zi qiyib tashlab ketolmay, uzoq turib qoladi. Bu diydor anglatadiki, bizning yurtga tongларu subhidamlar zebu ziynatdek yarashadi.

Biz ildizlari ming yillik sarchashmalardan obihayot simirgan, asrlar silsilasida toblanib, o‘z davrida dunyoga egalik qilgan, janglarda jasorat alangasini yoqqan, olovlarda yonib, qaqnus kabi o‘z kulidan qayta yaralgan, oriyati tog‘, bahodirlarga beshik tutgan, hurriyat tonglarini ming tun aro umidvor kutgan zamin farzandlarimiz. Har bir qorong‘i tundan oppoq tongni asragan, quyoshga yelka tutgan, navqiron va barhayot millatmiz! Qadriyatlarimiz, an’analarimiz, tariximiz, ma’naviy merosimiz, asliyatimizni avloddan avlodga bus-butun yetkazish mas’uliyatini olgan ildizlarmiz.

Osuda osmon ostida otayotgan har tongiga, o‘tayotgan har kuniga shukrona qilib yashayotgan nuroniylarimiz, saharmardonni tandirdan chiqib, ikki yuzi shirmoydek qizarib, bir savat issiq non bilan qarshilayotgan onajonlarimiz, quyoshdan oldin turib, ko‘cha yuzini tongga sarishta ko‘rsatayotgan kelinlarimiz, qo‘li ko‘ksida “Assalomu alaykum”, deya millat tarbiyasini namoyon etayotgan yoshlarimiz, xalqimizning fayzga va mehrga to‘la dasturxoni — bularning barchasi yangi O‘zbekiston subhidamining go‘zal chizgilari.

Mamlakatimiz uzra yangi tong, yangi davr nafasi taralishi, xalqimizning uzoq davom etgan qaramlik uyqusidan uyg‘onishi yurt osmonida munavvar tonglarning ota boshlaganidan darak bersa ham, aslida, oftobni berkitib turgan qora bulutlarning butkul tarqalishi uchun chorak asr vaqt ketdi. Bu davr mobaynida o‘rgimchak to‘ridek chirmagan qo‘rquv, berklik kabi devorlar parchalanib, o‘zbek xalqining ko‘ksiga nihoyat erk shabadasi tegdi.

Ming shukrki, bugun mamlakatimizda yuritilayotgan oqilona siyosat sharofati bilan sururli kunlar, chinakam munavvar tong lazzati xalqimizga nasib qildi. Manglayimizda porlab turgan tole quyoshi bugun yo‘limizni yoritib, yorug‘ manzillarga chorlamoqda. Shu pallada O‘zbekiston Qahramoni, xalq shoiri Abdulla Oripovning quyidagi misralari shuurimizda asta pichirlaydi:

Hoy oppoq tong, latofatli tong,
Sen gulshanga gul bo‘lib qo‘nding.

Darhaqiqat, bu gulshanga gul misoli yarashgan tong endi bog‘u bo‘ston bunyod etmoqda. Zero, bu tonglar shunchaki otgan tonglar emas, ular uchun minglab yuraklar tutilgan, millionlab umidlar tikilgan. Bu farahbaxsh kunlarga yetishni orzu qilgan, hurriyat tonglariga yetmoq uchun jonini tikkan jadidlar ham, aslida, shu subhidamlarning nasimlari, desak ayni haqiqat bo‘ladi.

Qattol davrlar buhronini yorib chiqqan yangi hayot tongi, millat qalbini isitgan ma’rifat quyoshi, yorug‘ kunlarni jasorat bilan yetaklab kelganlar shu yurtning peshonasida yaraqlagan tole yulduzidir. Shu bois, elga xizmat qilish shu vatanga daxldor har bir insonning asosiy maqsadi, maslagiga aylandi.

Bugun yurtning har qadamida o‘zgarish, yangilanish... Endi shu o‘zgarishlar to‘lqinida odamlarning o‘z kelajagiga, ertangi kuniga munosabati o‘zgardi, hayotga, unib-o‘sgan zaminiga muhabbati, jamiyatga e’tibori oshdi. Inson va uning manfaatlari oliy qadriyat ekanini qalban his etdik. Demakki, yangi Renessans ostonasida davr va makon, maqsad va burch, islohotlar va samara, yetakchi va yelkadoshlar birligi — yangi O‘zbekiston mafkurasida jamuljam bo‘ldi. Mana endi xalqimiz yorug‘ kunlar ichra yashamoqda va yashnamoqda. Ortga bir on nazar solar ekanmiz, nechog‘liq parvoz qilganimizni beixtiyor anglab, dildan shukronalar keltiramiz. Hayotimizda subhidam boshlandi.

Bu tonglar qadriga yetish har birimizning insoniy burchimiz. Bu borada yoshlarimiz, ayniqsa, tashabbuskor bo‘lmog‘i lozim. Uchinchi Renessans bunyodkorlari bo‘lgan o‘g‘il-qizlarimiz shu mushohadalar orqali qalblari tug‘yonlanib, hayotda yuksak marralarga erishish uchun tinimsiz mehnat, qat’iyat va shijoat, fidoyilik, ilm-u ma’rifat, sadoqat va yetuk tarbiyani jism-u jonlariga mujassam etsa, quyosh eng pokiza subhidamlarni millatga baxshida qilaveradi, munavvar tonglar otaveradi...

MAMLAKATIMIZNING OLTIN FONDI

Ularning iste’dodini yuzaga chiqarishda Prezident maktablari lokomotiv rolini bajarmoqda

Farg‘ona shahridagi Prezident maktabining 11-sinf o‘quvchisi Jaloliddin Abdumo‘minov IELTS, ya’ni xalqaro ingliz tili imtihonidan 7,5 ball, 1600 ballik xalqaro SAT imtihonidan esa 1510 ballni qo‘lga kiritdi. Bu ballar unga xorijiy TOP universitetlar qatorida turuvchi bir nechta oliygoh grantini yutib olish imkonini berdi. Ular orasida Janubiy Koreyaning Ulsan milliy fan va texnologiya instituti (Ulsan National Institute of Science and Technology) esa o‘quvchiga 100 foizli grant taqdim etmoqda.

Mazkur institut dunyo bo‘yicha “QS World University Rankings” reytingida yuqori pog‘onalarni egallab keladi. Oliygohda o‘qiganlik to‘g‘risidagi diplom dunyoning barcha mamlakatlarida qabul qilinadi. Yosh iqtidor egasi bu yerda kimyoviy muhandislik sohasi bo‘yicha ta’lim olmoqchi.

— Ingliz tili va matematika bo‘yicha bilim hamda ko‘nikmalarimni mustahkamlashda ustozlarimning zahmatli mehnati bor, buni alohida e’tirof etaman, — deydi Jaloliddin. — Maktabimizda ta’lim olish, nazariy bilimlarimizni amaliyot bilan mustahkamlash, o‘zaro muloqot madaniyatini shakllantirish, bo‘sh vaqtimizni mazmunli o‘tkazish — barchasi uchun sharoitlar mavjud. Kimyo faniga qiziqishim sabab kelajakda bu sohani mukammal o‘qib-o‘rganmoqchiman. Maqsadim — mamlakatimizda kimyo sanoati taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shish, neftni qayta ishlash jarayonlarini takomillashtirish. Mazkur yangi konlarni o‘zlashtirish, mavjud texnologik qurilmalarni takomillashtirish orqali import qilinadigan mahsulot miqdorini kamaytirish imkoniyatini beradi. Bu iqtisod aholi farovonligiga ijobiy ta’sir qiladi.

Muvaffaqiyatlar o‘z-o‘zidan kelmaydi, albatta. Uning ortida izlanish, o‘qish va ustozlarning samarali mehnati mujassam. Joriy o‘quv yili yakuniga ko‘ra, Farg‘ona shahridagi Prezident maktabida 11-sinfda tahsil olayotgan 24 o‘quvchining deyarli barchasi hozirdanoq 50 dan ortiq nufuzli xorijiy universitetda o‘qish huquqini beruvchi grant g‘oliblari bo‘ldi.

— Bizda 5-sinfdan 11-sinfga qadar 168 o‘quvchi tahsil oladi, — deydi maktab direktori Obidxon Mo‘minov. — O‘quv jarayoni Kembrij universiteti dasturlari asosida ingliz tilida tashkil etiladi. Joriy o‘quv yilida 11-sinfni bitirayotgan o‘quvchilarimizning barchasi yuqori ko‘rsatkich bilan nufuzli xalqaro ta’lim muassasalarida o‘qish uchun yo‘llanmalarga ega bo‘ldi. Yoshlarning IELTS til bilish darajasi o‘rtacha 7 ball, 1600 ballik xalqaro SAT — ingliz tili va matematikani bilish darajasi 1406 balli ko‘rsatkichda qayd etildi. O‘quvchilarimiz xalqaro va respublika miqyosida bo‘lib o‘tayotgan ko‘riktanlov, fan olimpiadalarida ham faol. 9-sinf o‘quvchisi Muhammadyusuf Mo‘minov 26-28-may kunlari Boku shahrida turkiy tilda so‘zlashuvchi davlatlar o‘quvchi yoshlari o‘rtasida iqtisodiyot yo‘nalishida bo‘lib o‘tadigan xalqaro Olimpiadaga yo‘llanmani qo‘lga kiritdi. Sardor Anvarov hamda Gulnoraxon Sobirjonova xalqaro iqtisodiyot olimpiadasi saralash bellashuvlarining respublika bosqichi ishtirokchisiga aylandi.

Maktabda darslar zamonaviy texnologiyalar yordamida ko‘rgazmali vositalar, o‘qituvchi va o‘quvchilarning o‘zaro muloqotlariga tayangan holda o‘tiladi. Bu fanlarni chuqur o‘zlashtirish, nazariy bilimlarni amaliyot bilan uyg‘unlashtirish, yoshlar tafakkurini kengaytirishga xizmat qilmoqda. O‘zlashtirishi yuqori o‘quvchilar boshqa tengqurlariga “Do‘stona yordam” loyihasi asosida ko‘mak beradi. Bu yoshlarni hamjihatlikka chorlashi, fanlarni o‘zlashtirish bilan bog‘liq mavjud muammolar yechimida qo‘l kelayotgani bilan e’tiborli. Asosiy fan va sport to‘garaklaridan tashqari koreys, nemis tilini o‘rganish, diplomatiya o‘quv kurslari ham yo‘lga qo‘yilgan.

— Bu yerda har jihatdan faol lider bolalar to‘plangan, — deydi maktab psixologi Ravshanbek Hakimjonov. — Bizning asosiy vazifamiz ularning iqtidori, imkoniyatini yanada oshirish, o‘ziga ishonchini mustahkamlash. Shu maqsadda har bir bolaning “Maqsadlar daftari”ni tashkil etganmiz. Ular kunlik ish rejalari va maqsadlarini daftarga qayd etib, kun oxirida ijrosini tahlil qilib boradi. Bu o‘quvchilarda vaqtini qiziqarli o‘tkazish, kunni to‘g‘ri taqsimlash ko‘nikmasini shakllantiradi. Shuningdek, “Liderlar kuni” tizimini joriy qildik. Bunda har bir bola o‘zining boshqaruv qobiliyati, bilim va ko‘nikmalarini maktabdagi amaliy jarayonlarda ishtirok etish orqali ko‘rsatib berishga harakat qiladi.

Maktabda olti mingdan ortiq kitob fondiga ega zamonaviy kutubxona bor. Robototexnika to‘garagida o‘quvchilar g‘oyasi asosida tayyorlangan texnika va qurilmalarga alohida o‘rin ajratilgan. Turli tillarda muloqot qiluvchi “temir odamlar”, “aqlli issiqxona”, mashina va boshqa mexanizmlar, nogironlar uchun mo‘ljallangan stul va hassa, elektr energiyasi sarfini tejovchi “aqlli uy”, suv olish va yuk ko‘targich singari qurilmalar yoshlar ijodiyoti mahsuli. Ular o‘z ishlanmalari bilan elektrotexnika ijodiyoti ko‘rik-tanlovlarida muvaffaqiyatli ishtirok etib kelmoqda.

— O‘quvchilarning bilim olishga ishtiyoqi, intilishi juda kuchli. Mavzularni tez o‘zlashtiradi, izlanishdan charchamaydi, — deydi fillipinlik biologiya fani o‘qituvchisi Shirley Rodofo Torres. — Ularga zamonaviy bilimlar berayotganimdan xursandman. Hammasi bilan do‘stona munosabatdamiz. Yoshlarning fanlarni o‘zlashtirish, muloqot madaniyatini boyitishga qiziqishi juda yuqori. Hafta davomida ular bilan birga yashaymiz, o‘qib- o‘rganamiz.

— Jismoniy chiniqish aqliy imkoniyatlarimizni oshirishga xizmat qiladi, — deydi 11-sinf o‘quvchisi Vazira Mirzaxo‘jayeva. — Darsdan bo‘sh vaqtlarimizda sport bilan shug‘ullanib, jismoniy faolligimizni oshirib boramiz. Bu bizni ijodkorlik, o‘z fikri, iqtidorini emin-erkin namoyon qilishga undaydi. Har bir o‘quvchining o‘z maqsadi, intilishi bor. Mening maqsadim — iqtisodiyot sohasida xalqaro oliygohda o‘qish.

Prezident maktablari tashkil etilishi intiluvchan, yangi bilimlarni o‘zlashtirishga qiziqishi baland iste’dodli o‘quvchilarga keng imkoniyatlar yaratib berdi. Yurtimizdagi maktablarning lokomotiviga aylangan bunday ta’lim maskanlarida vatanimizning oltin fondi, deya ta’riflanayotgan yoshlar yurt ravnaqi, shon-shuhratini yuksaklarga ko‘tarish yo‘lida bilim va salohiyatini namoyon etib kelmoqda.

Rasuljon KAMOLOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Zamondosh

1000 DOLLARDAN ZIYOD MAOSH OLAYOTGAN O‘QITUVCHI

Vazir jamg‘armasidan har oylik ustamaga nomzod bo‘lgan navoiylik pedagoglarning 63 nafari belgilangan sinovlardan muvaffaqiyatli o‘tdi. 2023-2024-o‘quv yili yakunlangan vaqtda bu xabar Navoiy viloyatidagi ta’lim tizimi xodimlarini yana bir karra quvontirdi. Sababi, viloyatda Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi jamg‘armasidan har oylik ustama to‘lanadigan malakali pedagoglarni saralash jarayonidan muvaffaqiyatli o‘tayotgan o‘qituvchilar soni tobora ortib bormoqda. Ushbu malakali pedagog kadrlarga 9 oy davomida mehnatga haq to‘lashning eng kam — 5,5 barobari miqdorida ustama to‘lanadi. Bu esa o‘qituvchilar mehnatini munosib rag‘batlantirish bilan birga hududlarda ta’lim sifatining yanada oshishida muhim o‘rin tutadi.

Sog‘lom raqobat va mehnatga yarasha munosib rag‘bat bor joyda o‘sish bo‘ladi. Bugun o‘qituvchilarni qiziqtirayotgan, o‘z ustida yanada ko‘proq ishlash, izlanish, ta’lim sifati va rivojiga katta hissa qo‘shish, o‘quvchilarni yutuqlarga erishtirishga undayotgan rag‘batlardan biri vazir jamg‘armasi ustamasidir. Turli toifa, xalqaro sertifikat va vazir ustamasi kabi yutuqlarni qo‘lga kiritgan pedagoglar 1000 AQSH dollaridan ziyod maosh olmoqda.

Konimex Navoiy viloyatining eng olis hududlaridan. Alijon Jo‘rayev qo‘shni Buxoro viloyatidan kelib, bugun tuman markazidan 150 kilometr masofada joylashgan 23-maktabda ingliz tili fanidan dars bermoqda.

— O‘qituvchi moddiy jihatdan muhtoj bo‘lmasa, asosiy e’tiborini ta’limga qaratadi. Buni men ham faoliyatimda his qilyapman, — deydi u. — Toifa va xalqaro sertifikatga egaman. Olis hududga kelib ishlayotganim uchun ustama ham olaman. Bugun oylik maoshim 1000 dollardan oshadi. Biz ham shu rag‘batga munosib bo‘lish uchun astoydil mehnat qilyapmiz. O‘quvchilarimiz orasida fan olimpiadasi va boshqa tanlovlarda faxrli o‘rinlarni egallayotganlar soni ham ortib bormoqda.

O‘quv yili yakunlanar ekan, turli xalqaro va milliy sertifikatlar olib, yurtimiz yoki xorijdagi oliy ta’lim muassasalariga muddatidan oldin o‘qishga kirib, talaba bo‘layotgan o‘quvchilar haqidagi xabarlarga tez-tez ko‘zimiz tushmoqda. Bular bari ta’lim tizimidagi islohotlar samarasidir.

Bu borada Qiziltepa tumani ham yetakchi hududlardan. Joriy o‘quv yilida tumandagi birgina 5-maktabning 70 o‘quvchisi xalqaro va milliy sertifikatga ega bo‘lgani ham fikrimiz tasdig‘idir. Ayni vaqtda ushbu maktabda 2 mingga yaqin o‘quvchi tahsil oladi. Bu yil 84 bitiruvchidan 7 nafari davlat, 24 nafari nodavlat oliy ta’lim muassasalariga muddatidan oldin talabalikka tavsiya etildi.

Ustozlarning ta’lim tizimidagi mashaqqatli mehnati yoshlar erishayotgan natijalarda yaqqol namoyon bo‘layotir. Ushbu ta’lim maskanida faoliyat yuritayotgan Nigora Aslonova tugallangan o‘quv yilida AQSH elchixonasi o‘tkazgan tanlovda g‘olib bo‘lib, okeanorti davlatda qirq kun malaka oshirib qaytdi.

— Bu jarayon men uchun katta tajriba maktabi bo‘ldi. Xorijiy mamlakatlarning ta’lim tizimidagi zamonaviy va ilg‘or uslublarni o‘rgandim. Ushbu yo‘nalishlar, o‘zlashtirgan bilim va ko‘nikmamni hamkasblarim bilan ham o‘rtoqlashdim, — deydi 5-maktabning ingliz tili fani o‘qituvchisi Nigora Aslonova. — Hozir pedagogik faoliyatimda samaradorligi yuqori bo‘lgan zamonaviy uslublarni tatbiq etyapman. Albatta, buning natijasi sezilyapti. O‘quvchilarning o‘zlashtirish ko‘rsatkichi ancha oshgan. Ta’lim sifatini bosqichma-bosqich yuqori darajaga olib chiqish ustida tinmay izlanyapmiz.

Qiziltepa tumanidagi ixtisoslashtirilgan maktab ham ta’lim sifati va o‘quvchilar erishayotgan yutuqlar bo‘yicha nafaqat viloyatda, balki mamlakatda ham yetakchi o‘rinlarda turadi. Mazkur maktab o‘tgan o‘quv yilida bitiruvchilari 100 foiz oliygohlar talabasi bo‘lgani bilan ham e’tiborga tushgan edi.

— Maktabimizda 50 ga yaqin malakali pedagog 300 dan ziyod o‘quvchiga ta’lim berib kelmoqda. O‘qituvchilarimizning barchasi toifa, milliy va xalqaro sertifikatlarga ega, — deydi Qiziltepa tumanidagi ixtisoslashtirilgan maktab direktori Mehriniso Xolova. — O‘quvchilar uchun barcha zamonaviy imkoniyatlar yaratilgan. Shunga yarasha samaradorlik ham yuqori. Fan olimpiadalari, turli tanlovlarda yutuqlar muntazam qo‘lga kiritilmoqda. Ba’zi o‘quvchilar xorijiy tillar bo‘yicha xalqaro sertifikatga ega. O‘tgan yili barcha bitiruvchilarimiz OTMlarga o‘qishga kirdi. Bu yil ham ushbu yuqori natijani takrorlashni maqsad qilganmiz.

Joriy o‘quv yilida Navoiy viloyatidagi umumiy o‘rta ta’lim maktablarini 11 ming 700 dan ziyod 11-sinf, 17 mingga yaqin 9-sinf bitiruvchisi muvaffaqiyatli tamomlamoqda. Ularning 624 nafari oltin, 34 nafari kumush medalga loyiq ko‘rildi. 730 dan ortiq bitiruvchi muddatidan oldin talabalikka tavsiya etildi. 2138 o‘quvchining xalqaro va milliy sertifikatlarni qo‘lga kiritgani ham viloyatda o‘qitish sifati yuksalib borayotganidan dalolat.

Bugun ta’lim tizimidagi islohotlar, yaratilayotgan imkoniyatlar, zamonaviy sharoitlar o‘qituvchilarning o‘z ishidan mamnun faoliyat yuritishi, o‘quvchilarning esa sifatli ta’lim olishiga xizmat qilmoqda. Ta’limga berilgan e’tiborning yuksak samarasi esa bugungi erishilayotgan yutuqlarda namoyon.

G‘olib ABDUSALOMOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Bolalarning milliy qadriyatlar ruhida ulg‘ayishini istasak, eng avvalo, milliy multfilmlarni ko‘paytirishimiz kerak.

YANGI O‘ZBEKISTON

2024-yil 28-may, 103-son

G‘oyaga qarshi g‘oya

Multfilmlar TA’SIRIDA ULG‘AYAYOTGAN BOLALAR

Bir manbada “G‘oya ishlab chiqarishga sarflangan bir dollar qiymati bomba ishlab chiqarishga sarflangan yuz dollarnikidan ortiq”, deyilgan. Hech bir tamoyil bilan bu iddaoni inkor qilolmaymiz. Sababi, dunyo sahnida kechayotgan mojarolar, geosiyosiy, milliy, diniy va irqiy adovatlar tashviqotga aylangan g‘oya va mafkuralar ta’sirida sodir bo‘lmoqda.

XXI asrda hech bir odamni axborot va g‘oyalar ta’siridan ayro tasavvur qilib bo‘lmaydi. Media bozorining eng oldi mahsulotlari: kino, multfilm, kuy-qo‘shiqlarning aksariyati g‘oya tashuvchi vositalarga aylangani sir emas. Bugun bu sohada, jumladan, multiplikatsiya yo‘nalishida aytarli natijalarga erisha oldikmi? Nima uchun bolalar xorijiy multfilmlar tomoshasiga mukkasidan ketgan? Axir milliy ruhdagi multfilmlar ishlash uchun boy madaniy tariximiz, qadriyatlarimiz yetarli-ku! Yechim qayerda: mablag‘dami, ssenariy yoki texnologik salohiyatda?

Mazkur savollarga oydinlik kiritish uchun rejissyor, animator, “Eng yaxshi animatsion film” nominatsiyasi bo‘yicha “Oltin humo” mukofoti sohibi Abdulatif Haydarov bilan suhbatlashdik.

— Animatsiya san’ati bir asrdan ziyod vaqt davomida bizni jozibali qahramonlar, hikoyalar va fantastik olam bilan maftun etib kelmoqda, — deydi animator. — Multfilmlar bolaning odob-axloqi shakllanishi, olamni anglashi va aqliy tafakkuri o‘sishida muhim vazifani bajaradi. Shu bilan birga, yot g‘oyalarni yoyish va singdirish uchun eng ommaviy qurol hamdir.

Tadqiqotlarga ko‘ra, bolaning multfilmdagi xayoliy qahramonlar, joy va voqealarga qiziqishi yuqori bo‘ladi. Ekrandan uzatilayotgan ma’lumotning haqiqatligiga ishonch hosil qila boshlaydi. O‘zini multfilm qahramoni sifatida ko‘rib, xatti-harakatlarini, gapirish uslublarini kundalik hayotda ham qo‘llashga kirishib ketadi.

Psixologlarning aytishicha, bola zo‘ravonlik va qo‘rquv elementlarini jamlagan multfilm va dasturlardan uzoq tutilishi, o‘z yoshiga mos, ibratli ishlarga yo‘naltirilishi kerak. Shuningdek, ota-onalar farzandining multfilm qahramonlarini namuna qilib olishiga yo‘l qo‘ymasligi va bola tarbiyasiga ko‘proq vaqt ajratishi lozim.

Televizorga bolani bo‘sh vaqtida andarmon qiladigan emas, balki ta’lim-tarbiyasini rivojlantiradigan vosita sifatida qarash muhim. Shuningdek, multfilm ko‘rayotgan o‘g‘il-qizni yolg‘iz qoldirmaslik, ya’ni nazoratda tutib turish talab etiladi.

Yot mafkuralarning birinchi nishoni hali unib-o‘smagan va ongi endi-endi to‘yinayotgan bolalar ekanini ko‘pchilik hali tushunib yetgani yo‘q. Bugun telekanallarda uzatilayotgan aksariyat multfilmlar xorij mahsuloti. Ular qiziqarli voqea va jarayonlarga boyligi bilan o‘sha davlatning g‘oyasi hamda mafkurasini aks ettirgan. Bolalarning milliy qadriyatlar ruhida ulg‘ayishini istasak, eng avvalo, milliy multfilmlarni ko‘paytirishimiz kerak.

— Multfilmlar ta’sirida ulg‘ayganmiz. Ammo uning yaratilishi, mashaqqati haqida o‘ylab ko‘rmaymiz. Ayting-chi, bitta multfilm yaratish uchun qancha vaqt va mablag‘ kerak?

— Animatsiya — dunyoda talab yuqori bo‘lgan kasblardan biri. Ijtimoiy tarmoqlarning rivojlanishi bu yo‘nalishga talab bilan birga, soha egalari zimmasidagi mas’uliyatni ham oshirdi. Yelkamizga yosh avlod uchun milliy kontentga asoslangan, qadriyatlarga qurilgan multfilmlarni ko‘proq yaratish, milliy mahsulotlarimizni ko‘paytirish yuki tushdi.

Yoshligimdan meni multfilmlarning qanday yaratilishi ko‘proq qiziqtirardi. Shu jihat animatorlikni egallashimga sabab bo‘lgan. Kompyuter o‘yinlariga qiziqish ortidan 2016-yili jamoa yig‘ib, kurs ochganmiz. 2018-yili “Avto sarguzashtlar” multfilmini suratga oldik.

Bu sohaning murakkab jihatlari juda ko‘p. Animator sabrli kishi bo‘lmasa, qiynaladi. Multfilmlarning yaratilishiga kelsak, O‘zbekistonda 15-20 mutaxassis bilan besh-olti oyda 10 daqiqalik multfilm ishlash mumkin. Ko‘p qismli multfilm bo‘lsa, misol uchun, 6 seriyaning birinchisi 5 oyda bitsa, oltinchi seriyasi 1 oyda tayyor bo‘lishi ham mumkin. Ishlar bir o‘zanga tushib olgandan so‘ng osonlashib boraveradi.

Chet elda mashhur multfilmlarni yaratish uchun mo‘maygina pul ketadi. Misol uchun, 1,5 soatlik multfilmni tayyorlashga o‘rtacha 200 million dollar sarflanadi va taxminan ikki yil ishlanadi. Buning uchun 500 ga yaqin mutaxassis jalb qilinadi. 10 daqiqalik multfilmning bir daqiqasini ishlash uchun 100-200 million so‘m atrofida xarajat qilinadi.

— Animatsiya sohasi O‘zbekistonga kirib kelganiga yarim asrdan oshdi. Bu vaqtda o‘ziga yarasha yutuqlarga erishildi. Ammo hali-hanuz chet el multfilmlarini bolalar ko‘proq tomosha qilmoqda. Buning sababi nimada?

— Bugun har bir bola internet orqali o‘ziga yoqqan multfilmni tomosha qila oladi. Afsuski, animatsiya sohasida yutuqlar bilan bir qatorda kamchiliklarimiz ham mavjud. Ushbu bo‘shliqni to‘ldirish uchun Prezidentimizning 2017-yil 7-avgustdagi “Milliy kinematografiyani yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi. Qarorda 2018-yili 15 ta, 2022-yildan boshlab har yili 50 tadan multiplikatsion film tayyorlash belgilangan edi. Uning ijrosi doirasida o‘ziga xos yutuqlarga erishildi.

Animatsiya sohasi mamlakatimizga kirib kelganiga yarim asrdan oshgan bo‘lsa, bu davrda besh yuzga yaqin multfilm yaratildi. Xorijiy tanlovlarda animatsion filmlarimiz munosib o‘rinlarni egalladi. Ammo yutuqlar bilan birga soha hali-hamon oqsayotgani ham bor gap.

Har bir jabha rivojida mablag‘ eng muhim masalalardan. Xususan, bizning soha ham bu muammodan xoli emas. E’tibor bersangiz, animatsiya rivojlangan Janubiy Koreya, Xitoy, Rossiya va boshqa davlatlar multiplikatsiyaga juda katta mablag‘ ajratmoqda. Bu, birinchi navbatda, sohaning kelajagi, yosh avlodning qarashlari va fikr ko‘lami bilan uzviy bog‘langan. Ya’ni har bir davlat multfilmlar orqali yoshlarga o‘z qadriyat va g‘oyalarini singdiradi. Boz ustiga, uni eksport ham qiladi. Shuning uchun rivojlangan davlatlarda sohaga e’tibor kuchli. Bizda ssenariy, texnika va mutaxassislar yetarli, mablag‘ bo‘lsa, bas. Eng avvalo, sohaning to‘laqonli qo‘llab-quvvatlanayotgani, albatta, natija beradi. Har yili yakdil g‘oyaga ega o‘nlab animatsion film ishlasa bo‘ladi. Ularning, hech bo‘lmasa, beshtasi yaxshi chiqishiga ishonaman.

Xorijda animatsiya nima uchun rivojlangan? Avvalo, ularning tanlov imkoniyati keng. Ko‘p multfilm ishlansa, raqobat ham kuchayadi. Yaxshi multfilmlar ko‘payishi kerak. Bitta film ishlab, bo‘ldi, yaxshi chiqmadi, deyish noto‘g‘ri. Misol uchun, bizga biror tashkilotdan buyurtma tushsa, buyurtmachi o‘z talablarini qo‘yadi. Biz ham talab doirasidan chiqolmaymiz. Bu ishni mutaxassisga qo‘yib berish kerak. O‘zi uddalaydi. Shuning uchun ijodiy erkinlik zarur.

Xususiy studiyalar uchun multfilm buyurtmasi murakkab jarayonga aylangan. Bu murakkablik o‘rniga sohani qanday rivojlantirish xususida bosh qotirsak, yaxshi bo‘lardi.

Xorijda animatorlar o‘zi yaratgan multiplikatsiya qahramonlarini sotadi. Shuning ortidan daromad oladi. O‘zbekistonda esa intellektual mulkni muhofaza qilish tizimi hozircha mukammal emas. Biror studiya yaratgan qahramonni boshqa studiya bemalol o‘zlashtiradi. Misol uchun, biz yaratgan multfilmlarni mahalliy telekanallar shartnoma tuzmasdan, efirga berib yuborgan hollar ham ko‘p uchraydi. Oqibatda muallif studiya hech qanday daromadga ega bo‘lmaydi.

— Bugun o‘zbek milliy xarakterini, aniqrog‘i, milliy qahramonlarni yaratish va ommalashtirishga qanchalik ahamiyat berilyapti? Xususiy studiyalarda bu kabi buyurtmalar bormi?

— Ijtimoiy tarmoqlarda multfilm tarbiya berishi shart emas, degan fikrlarga ham ko‘zim tushib qoladi. Men esa bunga qo‘shilmayman. Bolalar uchun mo‘ljallangan aksariyat telekanallarda xorij multfilmlari berilmoqda. Ya’ni milliy qadriyat va madaniyatimiz o‘rniga yot g‘oyalar singdirilmoqda. Yosh avlodimiz milliy qadriyatlarga muvofiq tarbiyalanishini xohlasak, nafaqat tarbiyaviy, balki g‘oyaviy jihatdan ham muhim ahamiyatga ega multfilmlar yaratishimiz kerak. Yoshlikda berilgan bilim toshga o‘yilgan naqshdir, deb bejiz aytishmagan.

Milliy xarakterga ega animatsiyalarni yaratishga birgina ijodkorning kuchi yetmaydi. Milliy qahramon bitta multfilmda paydo bo‘lmaydi: tarixiy va zamonaviy odamlar, robot yoki jonivorlar ko‘rinishida ham bo‘lishi mumkin. Eng muhimi, multfilm qahramoni orqali bolalar nimanidir o‘rganishi kerak.

Bu sohaga qancha ko‘p e’tibor qaratilsa, targ‘ibot-tashviqot qilinsa, bolani tashqi ta’sirdan asrash orqali milliy qadriyatlarga o‘rgangan avlod shakllanishi tezlashadi. Shunda bizning ma’naviy qiyofamizga hech qanday tashqi omil ta’sir qilolmaydi.

“Yangi O‘zbekiston” muxbiri Sardor TOLLIBOYEV suhbatlashdi.

Shukuh

MADANIYAT VA SAN’AT O‘CHOG‘IGA AYLANGAN MASKAN

Bu yil “Bo‘zatov FEST” tanlovida 248 mingdan ziyod yosh ishtirok etdi

2020-yili davlatimiz rahbari Qoraqalpog‘istonga tashrifi chog‘ida O‘zbekistonning barcha yulduzlarini Bo‘zatovga olib keladigan yirik loyihaga asos solish tashabbusini ilgari surgan edi. Ushbu ezgu tashabbus natijasida tashkil etilgan “Yoshlar ovozi – Bo‘zatov FEST” respublika tanlovi eng iqtidorli san’at yulduzlarini qoraqalpoq zaminida birlashtira oldi.

“Bo‘zatov iqtidorlarni kashf etadi!”. Ushbu shior ostida tashkil etilgan tanlov 2021-yildan buyon “Besh tashabbus” olimpiadasi doirasida o‘tkazilib, minglab iqtidorli yoshlarni kashf qilmoqda. Tanlovda 10 yoshdan 30 yoshgacha bo‘lgan barcha o‘zbekistonliklar ishtirok etishi mumkin.

Yoshlar ishlari agentligi tomonidan yuqori saviyada o‘tkazib kelinayotgan san’at bayramida 2021-yilda 10 ming yigit-qiz ishtirok etgan bo‘lsa, joriy yilda festival doirasidagi tanlovlarda 248 mingdan ziyod yosh qatnashdi. Ularning 158 nafari mahalla, sektor, tuman (shahar), hududiy bosqichlarida baxshichilik, an’anaviy ijro, opera hamda estrada yo‘nalishida g‘oliblikni qo‘lga kiritib, Qoraqalpog‘iston zaminida “Yoshlar ovozi — Bo‘zatov FEST” respublika tanlovida jamlandi.

Bu yilgi tanlov ko‘lami, ishtirokchilar soni, hatto bosqichlari bilan ham avvalgilaridan farqlanadi. Tanlov nizomiga qator o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritildi. Jumladan, respublika bosqichi final va super finalga bo‘lindi. Dastlabki saralash bosqichida har bir hududning eng kuchli yoshlari super final uchun bellashdi. Har bir yo‘nalish va yosh toifasida eng yuqori ball to‘plagan besh ishtirokchi super final bahsida sahnaga chiqdi.

— Chetdan qaraganda, ishtirokchilarni baholashda qiyinchilik yo‘qdek, hammasi oddiydek tuyulishi mumkin. Aslida, shunday vaziyatlar bo‘ldiki, ishtirokchilarning ballari teng kelib qolganda, san’atning nozik jihatlariga ham e’tibor qaratib, eng professional yoshlarimizga ustunlik berdik. Xususan, ijroning tozaligi, ravonligi, tinglovchiga qay darajada yetkazib bera olganiga qarab baholadik, — deydi O‘zbekiston Qahramoni, xalq artisti, tanlov hakamlar hay’ati a’zosi Munojat Yo‘lchiyeva. — Mutaxassis sifatida yana bir jihatni aytishim kerak. Ishtirokchi yoshlarimizda san’atga qiziqish, g‘oliblikka intilish juda kuchli. Shuning uchun ular katta asarlarni tanlab ijro etyapti. Ayniqsa, opera va maqom yo‘nalishlarida. To‘g‘ri, ular bunday ashulalarni hayratomuz tarzda ijro qilyapti, lekin o‘zlari bilmagan holda ovoz paylariga ziyon yetkazib qo‘yishidan cho‘chib turdim.

“Yoshlar ovozi” tanlovi yoshlarning kelgusi hayotida tramplin vazifasini o‘tamoqda. Festival g‘oliblari O‘zbekiston va dunyo sahnalarida o‘zini ko‘rsatishga erishmoqda. Masalan, 2023-yil 19-22-may kunlari “O‘zbekiston madaniy merosi” loyihasi taqdimoti doirasida tanlovning 2022-yilgi mavsumi g‘oliblari (11 nafar) tajriba almashish uchun Italiyaning Pezaro shahrida chiqishlar qilib, mashhur xonanda va sozandalardan mahorat darslari oldi.

G‘oliblar orasida Zulfiya nomidagi, “Nihol”, “Kelajak bunyodkori” kabi davlat mukofotlari egalari ham bor. E’tiborlisi, bunday iqtidorli yoshlar tufayli tanlov nufuzi yanada yuksalib, boshqa yosh iste’dodlarni o‘ziga jalb etmoqda.

— Prezidentimiz Qoraqalpog‘iston xalqiga, xususan, uning yoshlariga juda katta e’tibor va mehr bilan qaraydi. Festivalga asos solinishiga ham shu e’tibor sabab bo‘ldi, desam adashmayman, — deydi Yoshlar ishlari agentligi direktori, senator Alisher Sa’dullayev. — Buning natijasida bugun Bo‘zatov o‘ziga xos san’at va madaniyat markaziga aylanmoqda. Har yili minglab yoshlar shu yerda yig‘ilib, o‘z iste’dodini namoyish etmoqda. Ushbu loyiha kelajakda yanada ommalashishi, uni butun jahon san’at ixlosmandlari kuzatishiga ishonaman. Chunki tanlov tizimli ravishda takomillashtirilib, g‘oliblarni rag‘batlantirish mexanizmlari ishlab chiqilgan. Uch yil davomida san’at tanlovi ishtirokchilari soni 25 barobar ortgani fikrimiz tasdig‘idir. Endi Bo‘zatov nomini butun O‘zbekiston biladi. Prezidentimiz umid bildirganidek, kelgusida “Yoshlar ovozi — Bo‘zatov FEST” ishtirokchilarining ovozini butun dunyo eshitib, tan berishi uchun barcha tashkiliy ishlar qilinmoqda.

Ushbu nufuzli tanlovni o‘tkazishdan maqsad faqat noyob ovoz sohiblarini aniqlash va ularga sovrinlar berishdangina iborat emas. Ya’ni g‘oliblarni qo‘llab-quvvatlash shuning o‘zi bilan yakuniga yetmaydi. Balki kelajakda ularning san’atini keng targ‘ib etish, ommaga tanishtirib, san’at yulduzlarini kamolga yetkazishdek vazifa belgilangan. Agar bu ishlar tizimli yo‘lga qo‘yilmasa, yoshlarning iqtidori to‘liq kashf etilmay qolishi mumkin.

— Yoshlar kuni munosabati bilan 2022-yilda Prezidentimiz rahbarligida bo‘lib o‘tgan uchrashuvda Bo‘zatovda kashf etilgan iste’dodlarni kelgusida muntazam qo‘llab-quvvatlash yuzasidan aniq topshiriq berilgan edi, — deydi “Mening yurtim” telekanali bosh direktori Qobiljon Ahmedov. — Topshiriqdan kelib chiqib, “Mening yurtim” telekanali huzurida mas’uliyati cheklangan jamiyat shaklidagi “Yoshlar ovozi” prodyuserlik markazi tashkil etildi. U “Yoshlar ovozi” tanlovi g‘oliblarining iste’dodini doimiy ravishda namoyish qilib borish, san’at sohasining turli yo‘nalishlariga qiziquvchi iqtidorli yoshlarni qo‘llab-quvvatlash, ijod qilishi uchun zarur sharoitlar yaratish maqsadida har bir g‘olibning uyiga borib, “Bo‘zatov yulduzlari” ko‘rsatuvini tayyorlamoqda. Ular ishtirokida turli konsert dasturlari, musiqiy loyihalar tashkil etilmoqda.

* * *

“Yoshlar ovozi — Bo‘zatov FEST” respublika tanlovining umumiy mukofot jamg‘armasi 2,5 milliard so‘mni tashkil etadi. Tanlovda asosiy o‘rinlar egalaridan tashqari respublika bosqichiga chiqqan har bir ishtirokchiga 10 million so‘m pul mukofoti beriladi. Hozircha mamlakatimizda yoshlar o‘rtasida bunday nufuzli an’anaviy tanlov yagona.

Tanlovning 2024-yildagi mavsumi o‘nlab yangi yulduzlarni kashf etdi. Hakamlar hay’ati a’zolari xulosasiga ko‘ra, eng yuqori ball to‘plagan ishtirokchilarga barcha yo‘nalishlar bo‘yicha 3 ta o‘rin belgilanib, 1-, 2-, 3-o‘rin sohiblariga mos ravishda 50, 30 va 20 million so‘mdan pul mukofotlari topshirildi.

G‘oliblar orasida farg‘onalik Laylo Xalilova ham bor. U festivalda an’anaviy ijrochilik yo‘nalishi bo‘yicha 16-22 yosh toifasida 1-o‘rinni qo‘lga kiritdi.

— Tanlov juda hayajonli bo‘ldi, — deydi Laylo. — To‘g‘risi, g‘olib bo‘lishni kutmagan edim. Ustozlar ishonch bildirib, g‘oliblikka munosib ko‘rganidan minnatdorman. “Bo‘zatov FEST” hayotimda yangi sahifa ochdi. Bu yerda katta tajriba almashib, do‘stlar orttirdim. Meni qo‘llab-quvvatlab turgan barcha ustozlarimga, yaqinlarimga, mahallamizdagi yoshlar yetakchisiga rahmat aytaman.

Bir so‘z bilan aytganda, bugun Bo‘zatov tumani yosh san’at ixlosmandlarini birlashtiradigan yangi madaniyat va san’at o‘chog‘iga aylandi.

Nodir MAHMUDOV, “Yangi O‘zbekiston” muxbiri

“Yangi O‘zbekiston” va “Правда Востока” gazetalari tahririyati” DM

MUASSIS: **O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi**

Bosh muharrir: **Salim DONIYOROV**

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “Kolorpak” MCHJ mas’ul.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro‘yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. Buyurtma — 1718.
44034 nusxada bosildi.
Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. **Qog‘oz bichimi** A2.
Bahosi kelishilgan narxda.

“Kolorpak” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: O‘zbekiston, 100060.
Toshkent, Yangi shahar ko‘chasi, 1-A uy.
Bosmaxona telefoni: (78) 129-29-29

Navbatchi muharrir: Bekqul Egamqulov
Musahhih: Asliddin Abdurazaqov
Dizayner: Xurshid Abdullayev

Manzilimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko‘chasi, 85-uy

O‘zA yakuni — 22:15 Topshirildi — 22:55

Qabulxona: (71) 233-56-33 Devonxona va e’lonlar: (71) 233-70-98 E-mail: info@yuz.uz Veb-sayt: www.yuz.uz: (71) 233-47-05